

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
TARIX VA IJTIMOY FANLAR FAKULTETI
TARIX KAFEDRASI

G'aniyev Boburning

“5120300” Tarix ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr
darajasini olish uchun
“O'zbekistonda turizm taraqqiyotining tarixi va ahamiyati”
mavzusida yozgan

Bitiruv malakaviy ishi

Ilmiy rahbar: F.Samadova

“Himoyaga tavsiya etildi”

Fakultet dekani:

“ _____ ”
_____ yil

Qarshi 2016

Mundarija

Kirish	3
---------------------	----------

I bob. O‘zbekiston Respublikasida turizmning tarixiy bosqichlari

I.1. Turkistonda qadimgi va o‘rta asrlar davrida turizmning paydo bo‘lishi va shakllanishi.....	7
I.2. XIX – asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Buxoro amirligi va Xiva xonligida sayyohlikning rivojlanishi	13

II bob. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda turizmning rivojlanishi

II. 1. Jahon mamlakatlarida turizmning rivojlanishi tajribalari.....	23
II.2. O‘zbekistonda turizm sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari.....	30

Xulosa.....	51
--------------------	-----------

Tavsiyalar.....	54
------------------------	-----------

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati.....	55
---	-----------

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekiston Respublikasining ko‘hna tarixi, qadimiy madaniy – me‘moriy yodgorliklari jahon sayyohlarini hamisha o‘ziga chorlab kelgan. Dunyodagi hozirgi madaniylashgan bozorga kelgunga qadar ayirboshlash qator evolyutsion bosqichlarni bosib o‘tdi. O‘rta asrlardayoq tovar bozorlari ixtisoslasha boshladi. Chakana bozorlar, ko‘tara savdo bozoridan ajralib chiqdi. Tovarlar yarmarkalarda, birjalarda sotiladigan bo‘ldi. Vaqti kelib, tovar bozorlari bilan bir qatorda mustaqil xizmat bozori (transport, turizm) ham dunyoga keldi. Bozorning rivojlanishi natijasida savdogarlar qadimda, o‘rta asrlarda bir yurtidan ikkinchisiga faqat mol emas, shu bilan birga madaniyat, urf – odatlarni ham olib yurganlar. Ular ko‘rgan, bilgan yurtlaridan eng ilg‘or fan va madaniyat yutuqlarini o‘z yurtlariga olib kelishgan.

Ular orasida olimlar, shoirlar, hofizlar, tabiblar, sayyohlar va boshqalar bo‘lgan. Ular jug‘rofiya, matematika, astronomiya ilmlarini puxta bilishgan. Chunki bu bilimlarsiz keng sahroda, bo‘ronli va qorong‘i tunlarda (dengizda suzishda) karvonni ilgari boshlash qiyin kechgan. Shunga qaramasdan insonlar uzoq yurtlarga sayohat qilishdan voz kechmaganlar. O‘lkamizni rus bosqinchilari bosib olganlaridan keyin o‘lkaga G‘arbiy Yevropalik sayyohlarga nisbatan ularni shpionlar yoki ilmdan begona havaskor - omadsizlar deb qarash hukmron bo‘lib keldi. Bu siyosat sobiq sovetlar davrida ham hukmron edi. Sovetlar hukmronligi davrida tashqi mamlakatlar bilan turistik aloqalar va bu bilan bog‘liq mablag‘lar markaz ixtiyorida bo‘lganligi sababli respublikamiz iqtisodiyoti turizmdan keladigan foydadan unchalik ko‘p naf ko‘rmas edi.

Natijada turizm ishi respublikamizda jahon andozalari darajasiga ko‘tarilmay, tashkiliy jihatdan boshqa sohalardan orqada qoldi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikkka erishganidan so‘ng turizm ishini yaxshilash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 27 iyuldagi Farmoni bilan sayohat sohasida respublikada yagona siyosatni amalga oshiruvchi davlat organi – “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi tuzildi. U mamlakatda shu

sohadagi bir qancha davlat va jamoat tashkilotlari, birlashmalar negizida yangitdan tashkil etildi. Milliy kompaniya O'zbekistonda sayyohlikning huquqiy (1993 yili O'zbekiston Bali (Indoneziya) shahrida bo'lib o'tgan Butun jahon Turistik tashkiloti Bosh assambleyasining 10 – sessiyasida Butun jahon Turistik tashkilotining to'la huquqli a'zoliciga qabul qilindi) iqtisodiy asoslarini shakllantirib, jahon andozalariga mos keladigan sayyohlik tizimini tarkib toptirdi va bu sohada yangi izlanishlarni olib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasiga xorijiy investitsiyalar jalb etilib zamonaviy sayyohlik majmualari ko'plab qurilmoqda. Respublikamizdagi tarixiy me'morchilik obidalarini ta'mirlanishiga, ularni targ'ibot va tashviqot qilish ishlariga katta ahamiyat berilmoqda. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida fuqarolarga turizmning quyidagi turlari bo'yicha xizmat ko'rsatilmoqda: madaniy sayr – tanishuv, sport - sayyohlik, oilaviy sayyohlik; bolalar marshruti; biznesmenlar uchun marshrut; davolanish – maqsadli marshrut; dam olish marshruti va boshqalar.

Turistik soha bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxs va korxonalarga berilayotgan imtiyozlarni ham kengaytirish lozim. 2009 yilda mamlakatimizda 600 mingdan ortiq chet el turistlarining mehmon bo'lishi natijasida ularning har biri bir ming AQSH dollaridan ortiq valyuta sarf qilishining o'zi turizmning mamlakatimiz iqtisodiy samaradorligiga qanchalik hissa qo'shayotganligidan dalolat beradi. Bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida respublikamiz iqtisodiyotiga katta foyda keltiradigan turizm sohasiga oid mavzuni tanlash orqali o'zim va boshqa yoshlarni ham bu sohaning nechog'li foydali soha ekanligini anglab yetishlariga yordam beradi.

Shu o'rinda Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganidek: "Biz bugun bir tarixiy davrda-xalqimiz o'z oldiga qoygan ezgu va ulug' maqsadlar qoyib, tinch-osoyishta hayot kechirayotgan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va

fuqarolik jamiyati qurish yo'lida ulkan natijalarni qo'lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz”¹

Mavzuning dolzarbligi sifatida O'zbekistonda turizm taraqqiyotining tarixini o'rganish va tahlil qilish asos qilib olindi.

Ishning maqsadi va vazifalari.

Mazkur ishning maqsadi O'zbekistonda turizm taraqqiyotining tarixini o'rganish va tahlil qilishdan iborat.

Asosiy maqsaddan kelib chiqib, mazkur ishda quyidagi vazifalar asosiy vazifalar tarzida belgilab olindi:

- Turkistonda qadimgi va o'rta asrlar davrida turizmning paydo bo'lishi va shakllanishini o'rganish;
- XIX – asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Buxoro amirligi va Xiva xonligida sayyohlikning rivojlanishi sabablarini yoritib berish;
- Jahon mamlakatlarida turizmning rivojlanishi tajribalarini o'rganish;
- O'zbekistonda turizm sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini ochib berish.

Ishning ilmiy qiymati va ahamiyati

Ushbu bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi avvalo shundan iboratki, mazkur mavzu ilk bor bitiruv malakaviy ish sifatida ilmiy adabiyotlar bilan qiyoslab tahlil qilish asosida izchil tadqiq etildi.

- Turkistonda qadimgi va o'rta asrlar davrida turizmning paydo bo'lishi va shakllanishi o'rganildi;
- XIX – asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Buxoro amirligi va Xiva xonligida sayyohlikning rivojlanishi sabablari yoritib berildi;
- Jahon mamlakatlarida turizmning rivojlanishi tajribalari o'rganildi;
- O'zbekistonda turizm sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari ochib berildi.

¹ I.A.Karimov. “Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish- bizning bosh maqsadimizdir.T.,2013, 3-bet

Bitiruv malakaviy ishning tadqiqot va xulosa qismida keltirilgan ma'lumotlardan umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari tarix fani darslarida va ma'ruza matnlari tayyorlashda foydalanish mumkin.

Ishning aprobatsiyasi. Bitiruv malakaviy ish Qarshi davlat universiteti Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti "Tarix" kafedrasida qoshidagi "Yosh tarixchi" to'garagida hamda 2014-2015 o'quv yilidagi talabalar ilmiy-amaliy anjumanida ma'ruza qilingan.

Ishning hajmi va strukturasi. Bitiruv malakaviy ish kirish, Ikki bob, to'rt fasl, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va tavsiyalardan iborat.

Ishning umumiy hajmi ____ betni tashkil etadi.

I. bob. O‘zbekiston Respublikasida turizmning tarixiy bosqichlari

I. 1. §. Turkistonda qadimgi va o‘rta asrlar davrida turizmning paydo bo‘lishi va shakllanishi

Birinchi asosiy sayyohlik sayohati Fransiyalik sobiq harbiy Attashe va chor Rossiyasining Parijdagi elchisi bo‘lgan general M.N. Annenkov tomonidan Samarqandda temir yo‘l magistralining 1888 yilda birinchi navbati qurib ishga tushirilishidan boshlandi. Chunki bu temir yo‘l qurilishi unga sayyohlar sonining o‘sib borishi 1890 yillarda anchani tashkil qildi (sayyohlar sonining kam miqdori bu vaqtda 84 nafar kishini tashkil qildi. Ko‘plab sayyohlar ro‘yxatga olinmasdan umumiy holda faqat kuzatuvchining dunyodagi hozirgi madaniylashgan bozorga kelgunga qadar ayirboshlash qator evolyutsion bosqichlarni bosib o‘tdi. O‘rta asrlardayoq tovar bozorlari ixtisoslasha boshladi. Chakana bozorlar (pirovard iste‘mol talabi qondiriladigan bozor) ko‘tara savdo bozori (xomashyo, asbob – uskunalar va boshqa ishlab chiqarish vositalari sotiladigan bozor)dan ajralib chiqdi. Tovarlar yarmarkalarda, birjalarda sotiladigan bo‘ldi. Vaqti kelib, tovar bozorlari bilan bir qatorda mustaqil xizmat bozori (transport, turizm) ham dunyoga keldi.

Bozorning rivojlanishi natijasida savdogarlar qadimda, o‘rta asrlarda bir yurtidan ikkinchisiga faqat mol emas, shu bilan birga madaniyat, urf - odatlarni, diniy e‘tiqodlarni ham olib yurganlar¹. Ular ko‘rgan, bilgan yurtlaridan eng ilg‘or fan va madaniyat yutuqlarini o‘z yurtlariga olib kelishgan. Ular orasida olimlar, shoirlar, tabiblar, sayyohlar va boshqalar bo‘lgan. Ular geografiya, matematika, astronomiya ilmlarini yaxshi bilishgan. Chunki bularsiz keng sahroda, bo‘ronli va qorong‘i tunlarda karvonni ilgari boshlash qiyin bo‘lgan. O‘rta Osiyoda o‘n, o‘n to‘rt yoshli o‘spirinlarni tijorat sirlarini o‘rgatish maqsadida karvonlarga qo‘shib yuborish rasm bo‘lgan. Savdogarlik bilan qadimdan ayollar ham shug‘ullanishgan.

¹ S.M. Gorshenina XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning 30 – yillarida G‘arbiy Yevropa sayyohlarining Turkistonga safari haqidagi statistikaga oid yangi ma’lumotlar. O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar. 1999 yil, 10 son, B-83.

Yozma manbalardagi ma'lumotlarga qaraganda III – VII asrlarda Markaziy Osiyo va O'rta Sharq orqali o'tgan ipak yo'lining nazorati so'g'dlarning qo'lida bo'lgan bo'lsa, VIII asr o'rtalariga kelib, "Buyuk ipak yo'li"ning g'arbiy qismi arablar nazorati ostiga o'tdi. XIII asrda esa ipak yo'lining barcha tarmoqlari bo'ylab nazoratni Chingizxon o'z qo'liga oldi. Bu holat to XIV asr o'rtalarigacha davom etdi. So'ng "Buyuk ipak yo'li" orqali Temur va Temuriylar nazorati ostiga o'tdi. "Buyuk ipak yo'li" orqali Xitoydan G'arb mamlakatlariga savdo ishlari bilan birga sayyohlik, tijorat ishlari bilan tashrif buyurar edilar.

XVII – asr oxiri XVIII asr boshlarida Markaziy Osiyoning boshqa sharqiy mamlakatlar va Yevropa mamlakatlari bilan savdo – iqtisodiy aloqalari susaya boshladi¹. Mamlakatdagi va qo'shni viloyatlardagi feodal mojarolarning kuchayishi, chet elliklarning bosqinlari karvon yo'llari xavfsizligini ta'minlash imkoniyatidan mahrum qildi. Natijada qo'shni davlatlar bilan savdo – diplomatik, sayyohlik sohasidagi munosabatlar ham buzildi.

Savdo yo'llarining janubga ko'chishi va dengiz savdosinig kuchayishi Markaziy Osiyo shaharlarining tashqi savdo aloqalariga jiddiy zarba bo'ldi. Buyuk geografik kashfiyotlar tufayli Hindistondan va hatto ancha shimoldagi viloyatlardan mollarning ko'pgina turlari dengiz yo'lidan yuborila boshlandi. Markaziy Osiyoga G'arbiy Yevropaliklarning XIX asrda kirib kelishi muammolariga bag'ishlangan ilmiy ishlar ham kam emas, biroq bu mavzular hali mualliflar tomonidan to'la tugallangan emas.

Ayniqsa, G'arbiy Yevropaliklarning Turkistonga XIX asr oxiri – XX asrning 30 – yilliklaridagi sayyohlik safari statistik muammolari ayniqsa qiziqarlidir. Bunga sabab – arxiv ma'lumotlarining sochilib ketganligi, ma'muriy boshqaruvning barcha sayyohatchilarni to'liq ro'yxatga olib bormaganligi bo'lsa, qisman esa – bir necha o'n yilliklarda hukmron bo'lgan qarashlar ya'ni G'arbiy Yevropalik sayyohlarga nisbatan ularni shpionlar yoki ilmdan begona havaskor – omadsizlar deb qarash ham hukmron edi.

¹ O'zbekiston tarixi. . T., "Sharq," 2000, B-107

Markaziy Osiyoda o'rta asrlar so'nggida "Buyuk ipak yo'li"ning o'z ahamiyatini yo'qotishi natijasida sayyohlik yo'nalishi ham kamayib bordi. XX asr boshlarigacha Turkiston ana shunday qoloq davlatchiligicha qolaverdi. Sayyohlarning qiziqishi bu paytda Tibetga – ya'ni "dunyo tomi" nomini olgan Pomir tog'iga orta bordi. Bu yerga shimoli – g'arbdan ikkita yo'l orqali Transkaspiy yo'li va Moskva shahridan Orenburg shahri orqali boradigan Toshkent pochta yo'li edi. Ko'pchilik sayyohlar o'z yo'nalishlarini Rossiyaning yevropa qismidan boshlab (ko'plab sayyohlar Moskva va Sankt Peterburg shaharlarida ko'p yillar yashab qolar edilar) o'z sayyohatlarini Uzoq Sharqda, Xitoy, Mo'g'uliston, Hindiston va Tibetda tugatar edilar.

Bugungi kungacha fransuzlar, angliyaliklar, shveysariyaliklar, nemislarning va boshqa g'arbiy yevropaliklarning Turkistonga safarga kelganligini aniqlash qiyin edi. Shunga qaramasdan Buxoro amirligiga qancha sayyohlar kelib ketganligini chor Rossiyasining o'lkada yuritgan statistik ma'lumotlaridan ham bilib olishimiz mumkin. Buxoro amirligi Rossiya imperiyasi tobe'ligiga o'tgach (1868 yil), amirlikka sayyohlikka kelish uchun alohida ruxsatnoma olish talab qilinar edi. Buning uchun ko'pgina ma'muriy idoralar ruxsatini olishga to'g'ri kelar va birinchi navbatda Rossiya tashqi ishlar vazirligining (MID) Osiyo departamentidan maxsus ruxsatnoma talab qilinar edi.

Undan keyin esa Turkiston general – gubernatori kanselyariyasi arxivining Buxoro siyosiy agentligi tomonidan ruxsat berilar edi. Bironta ham yevropalik, Chor Rossiyasi siyosiy agentligining ruxsatisiz kiritilmas edi. Buxoro amiri sayyohlarni rus tilini biladigan tilmochlar orqali ta'minlar edi. Lekin, o'sha paytda xalqaro so'zlashuv tili fransuz tili bo'lib, chor Rossiyasining yuqori lavozimidagi amaldorlari (chinovniklari) buni yaxshi bilishar edi. Shunga qaramasdan, Rossiya – Buxoro o'rtasidagi protektoratlik shartnomasi kelishuviga ko'ra Buxoro amirligi chor Rossiyasi nazorati ostida olib borishi lozim edi.

Har qanday mamlakatda turizmni rivojlantirishda rejalashtirish majburiy hamda juda muhimdir. Rejalashtirish turizmni rivojlantirishning barcha bosqichlarida - xalqaro, milliy, mintaqaviy, mahalliy, shuningdek firmalar

darajasida amalga oshirilishi kerak. Bu sohani rejalashtirish nazorat qilinadigan, kompleks va barqaror asosda bo'lishi kerak. Turizm tartibsiz rivojlanayotgan joylar ko'pincha ham mahalliy aholining hayotiga, ham turistlarning dam olishiga zarar yetkazayotgan ekologik va ijtimoiy muammolardan ziyon ko'rmoqda. Nazorat qilinmaydigan turizm tumanlari rejali asosda rivojlanayotgan turistik markazlar bilan samarali raqobat qilishga qodir emas. Bunday tumanlarni rejali yondashuv asosida qayta tashkil qilish mumkin, biroq bu katta mablag'lar va ko'p vaqt sarflashni talab qiladi.

So'ngi yillarda turizm jahon iqtisodiyotidagi tez rivojlanib kelayotgan tarmoqlardan biridir. Bu soha neft qazib chiqarish va avtomobilsozlikdan so'ng yirik uchlikka kiradigan katta daromad keltiruvchi tarmoq hisoblanadi. Bugungi kunda turizm va unga bevosita hamda bilvosita hizmat ko'rsatuvchi sohalarda jahon mehnat resurslarining qariyb 60% qismi faoliyat olib bormoqda.

Butunjahon turistik tashkiloti (BTT)ning ma'lumotlariga ko'ra, 2020 yilga borib jahon bo'yicha sayyohlarning soni 1 025 mln kishiga yetishi bashorat qilinmoqda. Shuningdek, 2020 yilda xalqaro turizmi orqali olinayotgan daromad 2 trln AQSH dollariga yetishi mumkin. Bundan tashqari, qilinayotgan bashoratlarni tahlili shuni ko'rsatadiki, 2020-2025 yillarga borib Xitoy eng ko'p tashrif buyuruvchilar mamlakatiga aylanadi, Gonkong va Rossiyada ham bir muncha o'sish sur'atlari kutilmoqda. Jumladan, bashorat qilinayotgan yillarda Rossiyaga kirib keluvchilar soni mamlakatdan chiqib ketuvchi turistlarga nisbatan 1.3 barobar ortadi. Yevropa mamlakatlari ichida Chehiya yaqin kelajakda yuqori ko'rsatkichlarga erishishi nazarda tutilmoqda. Birgina shu davrda Xitoy va Gonkong ulushiga butun jahondagi jami turistlar oqimining 12.3 % qismi to'g'ri keladi.

Ayni paytdagi turistlar oqimi alohida mintaqalar bo'yicha o'rganiladigan bo'lsa, xalqaro turistik yo'nalishlarning o'rtacha 65 foizi Yevropa hissasiga, 20 foizi Amerikaga, 6.2 foizi Osiyo mamlakatlari va qolgan 8.8 foizi qismi esa boshqa mintaqalar zimmasiga to'g'ri keladi¹.

¹ Eng yangi tarix.. – T., "O'qituvchi," 2005, B-92

Bashorat natijalariga ko'ra, Rossiga kelayotgan turistlar sonining keskin ortishi, bizningcha, Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun ham manfaatli bo'lishi mumkin. Ammo, buning uchun albatta MDH mamlakatlari yoki Shanhay xalqaro hamkorlik tashkiloti, ayniqsa Markaziy Osiyo davlatlari, boshqa sohalarda bo'lgani kabi, o'zaro xududlarni turistik nuqtai nazaridan integratsiyalashgan, erkin sayyohlik makoniga aylantirish talab etiladi.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, sobiq Ittifoq xalq xo'jaligi singari berk (anklav) usulda turizmni rivojlantirib bo'lmaydi. Bu borada Yevropa tajribasini qo'llash joiz. Shu bois mazkur davlatlar xalqaro turistlarni ayriboshlash, ularni import va eksport qilish masalalarini ko'rib chiqishi lozim. Mazkur tadbirlarning amalga oshirilishi sayyohlarni turistik (mehmon bo'lib turgan) davrini ko'paytirish hamda sayyohlik xududiga valyuta tushish imkoniyatini yanada kengaytiradi.

Respublikamizga yaqin qo'shni bo'lgan Qirg'izistonning ham turistik salohiyati ancha yuqori bo'lib, o'zida rekreatsiya, tog' turizmi, sport va ekstrim turizm yoki ekoturizmni rivojlantirish mumkin. Huddi shunday, Qozog'iston ham sayyohlik tez rivojlanayotgan mamlakat hisoblanadi. Ayniqsa, Qozog'istonning "Baykanur" kosmodromida yaqin 25-30 yil ichida turizmni yangi turi, bugungi kunda eng ko'p sarf - harajat talab qilayotgan, ammo sarguzashtga boy, qiziqarli kosmik turizmni rivojlanishi ham ehtimoldan holi emas. Sayyohlikning bu turi bilan jahonning eng boy tabaqalari, sanoqli kishilargina shug'ullanmoqda. Vaholanki, dastlabki rasmiy turistik sayohatlarda XIX asrni oxirlarida aholining faqatgina elita qatlami, yuqori tabaqa vakillari ishtirok etgan edi.

O'zbekistonni turistik salohiyatini asosan Aleksandr Makedonskiy, Chingizhon, Amir Temur va so'ngi honliklar davrida bunyod etilgan 4 000 dan ortiq katta kichik tarixiy yodgorliklar ham belgilab beradi¹. Ma'lumot sifatida ta'kidlash joizki, respublikamiz sayyohlar ko'radigan joylar soni hamda ularga bo'lgan talab bo'yicha jahonning birinchi 10 talik davlatlari qatoriga kiradi. Mamlakatimizdagi 11 ta shahar dunyo miqyosidagi turistik shaharlar sifatida tan

¹ S.M. Gorshenina XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning 30 – yillarida G'arbiy Yevropa sayyohlarining Turkistonga safari haqidagi statistikaga oid yangi ma'lumotlar. O'zbekistonda ijtimoiy fanlar. 1999 yil, 10 son, B-104.

olingan. Mavjud tarixiy, madaniy yodgorliklar soni 2600 tadan ortiq bo'lib, bugungi kunda ularning atigi 150 tasiga sayyohlarni qabul qilinmoqda, holos.

Shuningdek, O'zbekistonni turistik salohiyatini yana bir o'ziga xos jihati shundaki, mamalakatda tabiatdagi relyef shakllarining barcha (tog', tekislik, cho'l, adir, dasht) ko'rinishlari mavjud. Farg'ona vodiysi, Bo'stonliq, Zomin, Urgut, Kitob, Boysun kabi hududlarda tog', sport, ekoturizm va rekreatsiyani rivojlantirish uchun yetarli shart-sharoitlar bor. Respublikamizdagi 300 dan ortiq rekreatsiya ahamiyatiga ega shifobaxsh mineral yer osti suvlarining 121 tasidan aholi salomatligini tiklash borasida foydalanilmoqda¹.

Yuqoridagi imkoniyatlar inobatga olingan holda, kelayotgan turistlar oqimining 40 foizidan ortiq qismi Samarqand, Buhoro va Xorazmga tashrif buyursa, 17 foizi Farg'ona vodiysiga, qolgan qismi boshqa mintaqalar zimmasiga to'g'ri keladi. Sayyohlarni ko'p qabul qilish, ularga xizmat ko'rsatish hajmi, foyda olish bo'yicha Samarqand va Buhoro viloyatlari yetakchilik qilsa, eng past ko'rsatkichlar Andijon, Jizzah va Toshkent viloyatlarida kuzatilmoqda.

O'zbekistonda 2009 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, jami 464 ta turistik tashkilot hamda firmalar bo'lib, shundan 446 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyat, xususiy firma va tadbirkorlardir. Xalqaro sayyohlarning asosiy qismi Toshkent shahriga tashrif buyurishadi. Sababi, poytaxt va Toshkent viloyati hissasiga jami turistik infrastukturaning 36 foizi to'g'ri kelishi hamda yetarlicha shart - sharoitlarni yaratilganligidir. Farg'ona vodiysi respublika turistik infrastrukturasining 19 foiziga ega. Biroq, mavjud turistik infrastrukturani sig'imi, darajasi chet ellik sayyohlar ehtiyojini to'la qondira olmayapti.

Vujudga kelgan muammolarni bartaraf etish maqsadida xalqaro sayyohlarning qiziqishlari va talablari darajasida qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish tizimini yaratish zarur. Shuningdek, yangi turistik xizmatlar va mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha horij investitsiyalari uchun loyihalar tayyorlash, jahon turizm bozorida O'zbekistonni yoki uning alohida mintaqalarini reklama dasturlarini hamda ularni shahsiy imidjini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

¹ O'zbekistonning yangi tarixi. Mustaqil O'zbekiston tarixi. 3-jild. – T., "Sharq," 2000, B-71

I.2. XIX – asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Buxoro amirligi va Xiva xonligida sayyohlikning rivojlanishi

Buxoro amirligiga sayyohatga keluvchi Gʻarbiy Yevropalik sayyohlar (shu bilan birga Rossiya fuqarolari ham) butun sayyohatlari davomida qattiq nazorat ostiga olinar edi. Buni quyidagi dalillar ham tasdiqlaydi. Zakaspiy viloyati boshligʻi general – leytenant A.N. Kuropatkinning 1891 yil 27 sentabrdagi 114 – sonli buyrugʻida “harbiy boshliqlar, boshqarmadagilar, viloyatlardagi idora xodimlari va Zakaspiy temir yoʻli va viloyatda yashovchilar, shuningdek xorijliklarga Buxoro amirligiga kirish faqat Zakaspiy temir yoʻli orqali amalga oshirilishi va ularning albatta temir yoʻl amaldorlarining roʻyxatidan oʻtishlari zarurligi” belgilab qoʻyildi.

Shuningdek, siyosiy agentlik har bir sayyohni qatʼiy rejim asosida roʻyxatga olib borar ekan, ularni kerakli hujjatlar, yoʻlboshchilar, tarjimonlar bilan taʼminlab turdi. Agar lozim boʻlsa bir yilgacha amirlikda yashash uchun ruxsatnomalar berib borishni yoʻlga qoʻydi. Qattiq tartib oʻrnatilishi natijasida, Rus siyosiy agentligi arxivida XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshlariga oid Gʻarbiy Yevropaliklarning Turkistonga sayohati haqida aniq maʼlumotlar olish mumkin ¹.

Agentlikda birinchidan, hujjatlar Buxoro amirligi boʻyicha (1890 – 1898 yillar) berilgan boʻlsa, ikkinchidan, toʻplangan maʼlumotlar shundan guvohlik beradiki, Turkistonga sayyohlar nima maqsadda kelganligi hamma vaqtda ham toʻliq koʻrsatilavermagan. Uchinchidan, hujjatlarning bir qismi, yaʼni ularning Turkistonga kelganligi va hujjatlarning rasmiylashtirilganligiga doir hujjatlarning bir qismi arxivlardan yoʻqolgan. Shunga qaramasdan “Buxoro va Markaziy Osiyoga chet elliklarning kelib ketishi haqida” va “Chet elliklarning Turkiston va Zakaspiy viloyatiga kelishi va ularga ruxsatnomalar berish haqida” gi qonunlar va hujjatlardan kelib chiqib Turkistondagi umumiy jarayonga baho berish mumkin boʻladi.

¹ S.M. Gorshenina XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning 30 – yillarida Gʻarbiy Yevropa sayyohlarining Turkistonga safari haqidagi statistikaga oid yangi maʼlumotlar. Oʻzbekistonda ijtimoiy fanlar. 1999 yil, 10 son, B-70.

Turkistondagi Buxoro amirligiga sayyohatga keluvchilarning tarkibi 1890 – 1898 yilgacha quyidagi kishilarni tashkil etgan: 75 nafar Buyuk Britaniyalik (28,8 %), 70 nafar nemis fuqarolari (26,9 %), 57 nafar fransuzlar (21,9 %), 24 nafar avstro – vengriyalik (9,2 %), 15 nafar amerikalik (5,7 %), 7 nafar daniyalik (2,7 %), 4 nafar bel'giyalik(1,5%), 4 nafar italiyalik (1,5 %), 3 nafar shveysariyalik (1,1 %), 1 nafar ispaniyalik (0,3 %) edi. Bu sayyohlar orasida bir yil muddatgacha turganlar orasida germaniyalik sayyohlardan 14 nafarini, fransuzlardan 3 nafarini, bel'giyalik, italiyalik, daniyalik va avstriya – vengriyalik sayyohlardan 1 nafardan yashaganliklarini misol keltirish mumkin. Germaniyaliklarning chor Rossiyasi davlatiga Rossiya fuqarosi bo'lishi uchun bunday murojaat qilishlarining sababi Turkiston o'lkasiga ham nemis sanoati kirib kelmoqda edi¹.

O'lkaga sayyohlarning kelish maqsadlari Buxoro amirligidagi hujjatlarda ko'pincha to'lig'icha qayd etilmagan yoki deyarli yo'q darajada. Biroq bu davrdagi sohada sayyohlik ham oldingi saflardan birida turizm va hatto ommaviy xususiyatga ham ega (turistik guruhlar 30 nafargacha shu bilan birga maktab o'quvchilari ham) edi.¹ Masalan, ov qilish (52 holatda sayyohlik sohasida ov qilishga ruxsat berilganligi va ov qilish sayyohatga kelishning bosh maqsadi ekanligi uqtirib o'tilgan). Undan keyin ilmiy – tadqiqot maqsadida; geologik, geografik, paleontologik, botanika va zoologiya (41 holat), ijtimoiy sohada; (tilshunoslik, tarix, arxeologiya, arxitektura, san'at, etnografiya), tarixiy sohada 13 holatda murojaat qilingan) bo'lsa, qiziqarlisi shundaki. Shundan 7 sayyohatchi guruhga har qanday arxeologik ekspedisiya ta'qiqlab qo'yildi (bular: nemislarga – 3 holatda, fransuz, shveysariyaliklar, daniyaliklar va ispaniyaliklarga – 1 holatda).

Savdo va sanoat sohasida sayyohlik unchalik ko'p sayyohlik maqsadida qo'yilgan emas edi: 18 holatda iqtisodiy maqsadda kelganlardan, 9 holatda – germaniyaliklar, 4 holatda - Buyuk Britaniyaliklar, 3 holatda Amerikaliklar va 1 holatda Fransuz va Daniyaliklar hissasiga to'g'ri keldi. Shulardan eng kam foizini diniy missiya tashkil etar edi.

¹ S.M. Gorshenina XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning 30 – yillarida G'arbiy Yevropa sayyohlarining Turkistonga safari haqidagi statistikaga oid yangi ma'lumotlar. O'zbekistonda ijtimoiy fanlar. 1999 yil, 10 son, B-92

Butun o'rganilib chiqilgan davrda bor yo'g'i to'rt martagina missionerlik sayyohati bo'lib, shulardan uchasi Buyuk Britaniyaliklar, bir marta esa Vatikan hukumati tomonidan yuborilgan diniy missiya tashkil etgan edi xolos. Quyidagi ma'lumotlar ham qiziqarli. Turkiston o'lkasiga kelgan G'arbiy Yevropalik 25 nafar sayyohlarning barchasi safar davomida 7 nafar - Buyuk Britaniyalik, 6 nafar Germaniyalik, 5 nafardan Amerikalik va Avstriya – vengriyalik va 1 nafardan Shveytsariyalik va Italiyaliklar) Rossiya politsiyasining doimiy nazorati ostida bo'ldilar.

Rossiyaning bir qator G'arbiy Yevropa davlatlari bilan siyosiy munosabatlarining yaxshilanishi natijasida bu davlat fuqarolarining Turkistonga kirib kelishi uchun ruxsat olishlari oson kecha boshladi. 1890 yillarda Rossiya va Fransiya davlatlari munosabatlarining yaxshi yo'lga qo'yilishi natijasida fransuzlarning Buxoro amirligiga unchalik qiziqishlari bo'lmaganligi sababli, ular tezroq ruxsat olishga erisha boshladilar. Asosan o'zaro kurash o'sha paytda Markaziy Osiyo masalasida Rossiya, Angliya va Germaniya davlatlari o'rtasida ketmoqda edi.

Shundan kelib chiqib, o'rganilgan manbalar asosida fransuz tilida so'zlashuvchilarning Turkistonga kelishi haqida quyidagi xulosaga kelish mumkin: Turkiston o'lkasiga kelgan fransuz tilida so'zlashuvchilarning ro'yxatga olingan jamoasi o'n yilliklarda 160 nafarni (1868 – 1932 yy) tashkil qildi. Ularning soni ayniqsa Zakaspiy temir yo'li nomiga rasmiylashtirila boshlangan edi).

Bu o'n yilliklarni Rossiya va Fransiya o'rtasida siyosiy, madaniy va iqtisodiy aloqalarning yaxshilanib borgani bilan izohlash mumkin. Turkiston chor Rossiyasining ajoyib (ekzotik) o'lkasi bo'lib qolganligi uchun fransuzlardan (1887 yildan 1893 yilga qadar) qisqa vaqt ichida yuqori amaldorlari (aristokratiya) dan (bir nafar – shahzoda, ikki nafar – markiz, uch nafar – baron, sakkiz nafar – graflar, ikki nafar – vikont) 13 nafari tashrif buyurishgan edi. O'tgan sakson yil ichida amaldorlarning o'lkaga tashrifi o'n olti marta manbalarda qayd qilingan edi.

1917 yilning martidan sentabr oyigacha Turkiston o'lkasida 9 – 10 ming nafar polyaklar, 8 – 8,5 ming nafar nemislar, 600 ming nafar greklar, 100 – 120

nafar chexlar va slovaklar, 100 nafar bolgar, 80, 100 nafar fransuzlar va shveysariyaliklar, 50,60 nafar angliyaliklar, 20, 25 nafar bel'giyaliklar va 40.000 nafarga yaqin avstriya – vengriyalik va germaniyalik harbiy asirlar yashashgan.⁴

Bu ma'lumotlar, ayniqsa fransuz tilida so'zlashuvchi sayyohlarning qisqa muddatga Turkistonga kirib kelishi va o'nlab yillar davomida bu yerda yashashlari haqidagi arxiv ma'lumotlari tahliliga ko'ra quyidagi 1840 yillarda – 3 nafar fransuz tilida so'zlashuvchi, 1850 yillarda – 1, 1860 yillarda – 3, 1870 yillarda – 13, 1880 yillarda – 37, 1890 yillarda – 103, 1900 yillarda – 46, 1910 yillarda – 37, 1920 yillarda – 12, 1930 yillarda – 1 nafar fransuz tilida so'zlashuvchi fuqarolar tashkil qilgan edi¹.

Bundan tashqari, 1918 yilda Turkistonda xorijliklar jamiyati tashkil etilib, uning a'zolari soni 40 nafarni tashkil qildi. Ularning orasida fransuzlar, shveysariyaliklar, bel'giyaliklar, angliyaliklar, italiyaliklar va greklar bor edi. Turkistonda va Rossiyada boshlanib ketgan fuqarolar va istiqloqlilik urushi yillarida ularning faolligi ancha susayib bordi va 810 nafardan 1255 nafarga o'sib borgan jamiyat a'zolarining soni 1920 yillarning o'rtalariga kelganida yana 40 nafar kishiga tushib qoldi.

1848 – 1932 yillarda 61 ta ilmiy ekspedisiyalar chet ellik olimlar tomonidan Turkiston o'lkasiga uyushtirildi. Shulardan 24 tasi ijtimoiy – gumanitar tadqiqotlar (shu bilan birga 6 tasi – arxeologiya bo'yicha), tabiiy fanlar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ekspedisiyasi – 32 tagachani tashkil qildi. 9 ta ekspedisiya harbiy – siyosiy informasiya maqsadida 3 ta ekspedisiya iqtisodiy aloqalarni yanada yaxshilash maqsadida, 5 ta ekspedisiya esa tijorat (bular 1890 yil Toshentda o'tkazilgan ko'rgazmaga tashrif buyurganlar va tijorat maqsadida kelganlar) maqsadida faoliyat yuritdi.

To'qqiz nafar fransuz tilida gaplashuvchilar Turkistonda uzoq vaqt shartnoma asosida maorif, sanoat (ipakchilik, vinochilik), qishloq xo'jaligi, temir yo'l transporti va maishiy sohalarda xizmat qildilar. 42 marta Turkiston o'lkasiga

¹ S.M. Gorshenina XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning 30 – yillarida G'arbiy Yevropa sayyohlarining Turkistonga safari haqidagi statistikaga oid yangi ma'lumotlar. O'zbekistonda ijtimoiy fanlar. 1999 yil, 10 son, B-96-97

sayyohlarning sayohatlari uyushtirildi. Yuqoridagi keltirilgan statistik ma'lumotlarda Turkiston o'lkasiga kelgan G'arbiy Yevropalik sayyohlar haqidagi ma'lumotlar XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Markaziy Osiyo va G'arbiy Yevropa mamlakatlari o'rtasidagi madaniy, iqtisodiy aloqalar haqidagi ma'lumotlarni yanada to'ldiradi.

O'zbekiston SSR tashkil qilingan dastlabki kunlardan oq uning suvereniteti cheklangan, Ittifoq hukumatiga qaram qilib qo'yila boshlandi. Chet davlatlar bilan mustaqil aloqa qilish va ko'p huquqlardan mahrum qilindi. O'zbekiston ajnabiy davlatlar bilan aloqa qilish huquqini "o'z ixtiyori"ga ko'ra ittifoq hukumatiga qonuniy yo'l bilan topshirishga majbur etildi. O'zbekiston xalqaro aloqalarda ittifoq tarkibida qatnashar edi. Bu masalada faqat ittifoq hukumatining ko'rsatmalari bilan ish qilar, chet ellar bilan iqtisodiy va madaniy aloqalarni ittifoq hukumati idoralari orqali amalga oshirar edi¹.

Xuddi boshqa Markaziy Osiyo respublikalari singari, O'zbekiston ham iqtisodiy va madaniy rivojlanishlarning deyarli barcha ko'rsatkichlari bo'yicha markaziy viloyatlardan ancha orqada turar edi. Markaz bunday tafovutning mintaqadagi ijtimoiy barqarorlikka va sobiq SSSRning qo'shni Osiyo mamlakatlaridagi obro' e'tiboriga yomon ta'sir o'tkazishi mumkinligini tushunar edi. Shu sababdan Markaz qoloq chekka o'lkalarga yordam berish yo'li bilan qo'shni davlatlardagi o'z mavqeini mustahkamlashga harakat qildi. Sovetlar davlati tarkibiga kiritilganidan keyin respublikamizda Tashqi ishlar xalq komissarligi tarqatib yuborildi.

O'zbekiston Xalq Komissarlari soveti qoshida ittifoq tashqi ishlar xalq komissarligining vakilligi qoldi, xolos. Tashqi siyosiy va ichki iqtisodiy faoliyatni markaz amalga oshirib boradigan bo'ldi. Shunga qaramasdan o'zbek yigit – qizlarining turli mutaxassisliklarga o'qib kelish uchun xorijiy mamlakatlarga, jumladan, Turkiya va Germaniyaga yuborilganligini eslatib o'tish zarur. Germaniyada o'qish ayniqsa samarali bo'ldi. 1920 – yillarning boshlaridayoq bir necha o'n kishidan iborat dastlabki guruhlar o'qishga yuborilgan edi.

¹ O'zbekistonning yangi tarixi. Mustaqil O'zbekiston tarixi. 3-jild. – T., "Sharq," 2000, B-112

Yosh respublika uchun zarur mutaxassisliklarni (to'qimachilik va teri ishlab chiqarish, qurilish ishlab chiqarishi, agronomiya va boshqa mutaxassisliklarni) o'rganish uchun 1930 – yillarda ham ana shunday mutaxassisliklarni) yuborish qisman davom etib bordi. Bu ta'lim dasturlarini mablag' bilan ta'minlashda Abdulhamid Cho'lpon, Munavvar Qori Abdurashidxonov va boshqa adiblar katta rol o'ynadilar. Ular adabiy – badiiy kechalar o'tkazar va tushgan pullarni Germaniyada o'qiydigan o'zbek talabalariga yuborar edilar. Bu muhim va taraqqiyparvar tashabbus afsuski, keyinchalik rivojlanmay qoldi.

Tashqi dunyo bilan muloqotda bo'lishning nihoyatda samarali yo'li bu ko'proq ilmiy aloqalar bo'ldi. Moddiy va ma'naviy qadriyatlarga, boy tarixiy, me'moriy, arxeologik obyektlarga ega bo'lgan O'zbekiston ko'pgina xorijiy olimlarni o'ziga jalb qilar edi. 1930 – yillarning boshlarida O'zbekiston bilan Yaponiyaning ipakchi olimlari o'rtasida samarali ilmiy aloqalar bog'landi¹. Bizning nazariy yutuqlarmiz yapon mutaxassislarida jiddiy qiziqish uyg'otdi. O'zbek ipakchilik ilmiy – tadqiqot institutining mutaxassislar 1930 – 1931 yillar Yaponiyada uzoq muddatli xizmat safarlarida bo'lib, bu yerda o'z yutuqlari bilan o'rtoqlashdilar va yapon ipagi ishlab chiqarishini o'rgandilar.

O'sha yerdan tut daraxtining qalin bargli bo'lib o'sadigan bir necha o'n xil navlarini va serhosilipak qurti urug'larini keltirdilar, bu kelgusida yaxshi natijalarni berdi. O'zbekistonlik yozuvchilar, artistlar, teatr xodimlari, rassomlar, kinematograflar ham chet ellarda tez – tez safarlarda bo'ldilar. Shunday qilib, o'zbekistonning ittifoq xalqaro aloqalari doirasidagi madaniy va ilmiy aloqalari, garchi unchalik to'la bo'lmasa-da, har qalay birmuncha samarali rivojlanib bordi.

Lekin, 1930 – yillarning ikkinchi yarmidan boshlab bunday aloqalar cheklana boshlandi. Ma'muriy buyruqbozlik tizimi respublikalarning qanday bo'lmasin biror tarzda mustaqilligi bilan, ayniqsa, ularning xalqaro miqyosdagi suveren huquqlari bilan kelisha olmas edi. Shunday bo'lsa – da. 1920 – 1930 yillarda O'zbekistonning xalqaro aloqalari, xususan Sharq va G'arbning talaygina davlatlari bilan iqtisodiy, ilmiy va madaniy aloqalari haddan tashqari murakkab

¹ O'zbekistonning yangi tarixi. 1-jild. – T., “Sharq,” 2000, B-63-64

sharoitlarda ham mustahkamlanib bordi. Bu aloqalar madaniyatlarning bir – birini tushunib, bir – birini boyitib borishiga, xalqlar o‘rtasidagi do‘stona aloqalarning mustahkamlanishiga yordam berdi. O‘zbek xalqi xorijiy mamlakatlar fani, texnikasi va madaniyatining eng yaxshi yutuqlaridan bahramand bo‘lishga harakat qildi. O‘zbekistonning iqtisodiy va madaniy qurilish sohasidagi yutuqlari chet ellarda ham katta qiziqish paydo qildi.

Afsuski, O‘zbekiston SSR o‘sha davrdagi xalqaro aloqalari keng tusga kirmadi, aksincha, asta – sekin yo‘qolib bordi. “Temir parda” sovet kishilarini tashqi dunyo bilan hukmdorlar nuqtai nazaridan o‘rinsiz bo‘lgan aloqalardan yaxshi to‘sib turar edi. Yaqinlashib kelayotgan jahon urushi o‘zaro gumonsirash, toqatsizlik va nafratlanish urug‘ini sochib bordi.

Ikkinchi jahon urushi boshlangach esa bu madaniy, iqtisodiy, ijtimoiy aloqalar urush tugagunga qadar uzilib qoldi. Urushdan keyingi yillarda O‘zbekistonda sanoat, qishloq xo‘jaligi, fan – texnika va madaniy, sayyohlik sohalari jadal rivojlanib bordi. Iqtisodiyot, fan – texnika sohasida qo‘lga kiritilgan yutuqlar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro aloqalari rivojlanib boirishi uchun moddiy asos bo‘ldi.

O‘sha yillarda O‘zbekiston ittifoq tarkibiga kirar va garchi ajnabiy davlatlar bilan tashqi aloqalarni mustaqil holda olib borishi mumkin bo‘lgan suveren respublika hisoblansa ham, shu ittifoq Konstitusiyasida tasdiqlab qo‘yilgan qonunlarga bo‘ysunar edi, ya’ni Konstitusiya respublikaning ajnabiy mamlakatlar bilan aloqada bo‘lish, ular bilan shartnomalar tuzish va diplomatik hamda konsullik vakillari bilan almashinish, xalqaro tashkilotlarda qatnashish huquqfini faqat rasmiy e’lon qilar, amalda esa bu huquqlar qog‘ozda qolib ketar edi.

Ma’muriy buyruqbozlik sharoitlarida boshqaruvni markazlashtirish respublikani xalqaro iqtisodiy va madaniy maslalarda qanday bo‘lmasin biror mustaqillik va tashabbus ko‘rsatish imkonidan mahrum etdi. O‘zbekistonning shunga qaramasdan ajnabiy mamlakatlar bilan iqtisodiy hamkorligining muhim yo‘nalishi bu mutaxassis kadrlar bilan almashinishi bo‘ldi. O‘zbekiston bu yillarda zavod, fabrikalar, xo‘jalik obyektlari qurish, asbob – uskunalarni montaj qilish, ishga

tushirishni yo'lga qo'yish uchun shu mamlakatlarga mutaxassislar yubordi. O'zbekiston fuqarolari asosan socialistik davlatlar bo'lgan Yevropadagi davlatlarga ko'proq sayyohlik, kadrlar tayyorlash va boshqa sohalarida aloqalarini rivojlantirib bordi xolos.

So'nggi yigirma yil davqomida respublikada 35 mamlakat uchun bir necha yuz vrach va tibbiy fanlar nomzodlari, paxtachilik, qishloq xo'jaligi irrigatsiyasi va mexanizatsiyasi sohalaridagi ixtisosliklar bo'yicha ham Yevropaning turli mamlakatlaridan kelgan 50 nafardan ortiqroq talabalar o'qitildi va bu davlatlar uchun mutaxassislar tayyorlandi. Zamonaviy fan taraqqiyoti turli mamlakat olimlarining ijodiy hamkorlikda ishlashini talab qildi. Tajriba bilan o'rtoqlashmaslik mablag'larning o'rinsiz sarflanishiga, allaqachon ma'lum bo'lgan ixtirolarni izlash yo'lida behuda vaqt ketishiga, ilm – fan taraqqiyotining susayib qolishiga olib keladi.

Biroq totalitar partya tartiboti yillarida kapitalistik mamlakatlar bilan ilmiy aloqalarni rivojlantirish sun'iy tarzda to'xtatib turildi, buning natijasida sobiq Ittifoqda, jumladan O'zbekistonda ham fan va texnika beqiyos darajada orqada qolib ketdi. Biroq bu ana shunday aloqalar umuman yo'q edi degan gap emas. Respublika Fanlar akademiyasining turli mamlakatlar ilmiy muassasalari bilan aloqasi samarali ilmiy hamkorlikka misol bo'lib xizmat qilishi mumkin. 1959 – 1972 yillarda Yevropa mamlakatlariga (asosan sotsialistik yo'nalishdagi) 153 nafar olimlar ilmiy safarlarga bordilar va ular diqqatga sazovor joylar bilan ham tanishtirildi¹.

O'z navbatida O'zbekiston Fanlar akademiyasining turli institutlariga o'sha mamlakatlardan 300 nafardan ko'proq olimlar kelib ketishdi va O'zbekistonning Samarqand, Xiva, Buxoro shaharlarining diqqatga sazovor joylarini tomosha qilib ketishdi. Ayniqsa, bu sohada Xalqaro tashkilotning muhim bo'g'ini bo'lgan YUNESKOning xizmati katta bo'ldi. YUNESKO tarixiy joylarni o'z muhofazasiga olish bilan birga turli tadbirlar ham o'tkazib bordi. Masalan, 1969 yil Samarqand shahrida Markaziy Osiyoning temuriylar davridagi san'ati

¹ O'zbekiston tarixi. – T., "Sharq," 2000, B-190 – 191.

yuzasidan BMT (YUNESKO) xalqaro simpoziumi bo‘lib o‘tdi. 1975 yili Toshkentda “Seysmik mintaqalarda loyihalash va qurilish” degan sovet – amerika seminari ham o‘tkazildi.

O‘zbekiston xalqaro madaniy hamkorlikda ajnabiy mamlakatlar yozuvchilari va shoirlarining O‘zbekistonga kelib ketishlari va o‘zbek adabiyotchilarining chet ellarga safarga borishlari adabiy aloqalarining kengayishiga xizmat qildi. Respublikaning san’at sohasidagi hamkorligi xalqaro madaniy aloqalarda ko‘zga ko‘rinarli o‘rinni egalladi. 1970 - yillar bilan 1980 – yillarning birinchi yarmida “Tinchlik, ijtimoiy taraqqiyot va xalqlar ozodligi uchun” degan shior ostida ikki yilda bir marta o‘tkazib borilgan Toshkent xalqaro kino anjumanida Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlari kinematografchilarining vakillarigina emas, balki Yevropa mamlakatlaridan kelgan mehmonlar, sayyohlar ham ishtirok etdilar¹.

O‘zbekistonda ayrim mamlakatlar Hindiston, AQSH, Italiya va boshqa xalqlarning kino kunlarini o‘tkazish ommaviy hodisa bo‘lib qoldi. O‘z navbatida o‘zbek ekran ustalarining kino lentolari turli chet mamlakatlarda namoyish etildi. Respublikada xizmat ko‘rsatgan davlat xalq raqs ansambli “Bahor,” “Yalla” vokal cholg‘u, “Lazgi” vokal’ xoreografik, “Sado,” “Shodlik” estrada ansambllarining jamoalari turli davlatlarda gastrollarda bo‘lib chet ellik tomoshabinlar oldida raqs va ashula san’atini namoyish etdilar. Bu ansambllar tomoshabinlar tomonidan qizg‘in kutib olindi va festivallarda qayta – qayta g‘olib chiqib, medallar va mukofotlar bilan taqdirlandi.

1975 yili O‘zbekiston Respublikasiga 60 dan ortiq mamlakatdan 92 mingga yaqin, ittifoqdosh respublikalardan esa 263 mingdan ortiqroq sayyohlar keldilar. 18 mingdan ortiq O‘zbekiston mehnatkashlari Yevropa, Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi va boshqa mamlakatlarda sayyohatlarda bo‘lishdi. O‘zbekiston SSRda 1975 yilda 5 ta sayohat va 16 ta ekskursiya byurosi, 38 ta sayyohlar klubi ishladi (1976 yil 1 yanvar’). Shuningdek 14 ta Butun ittifoq, 36 ta mahalliy marshrutlar ishlab turdi. 1975 yilda sobiq SSSRda mingga yaqin sayyohlik bazalari bo‘lib,

¹ O‘zbekiston tarixi. – T., “Sharq,” 2000, B-196 – 197.

shulardan 600 tasi kasaba uyushmalariga qarashli edi. O'zbekiston SSRda esa 22 ta sayyohlik bazalari sayyohlarga xizmat qildi.

O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan xalqaro madaniy aloqalari do'stona munosabatlar rivojlanishiga, xalqlar bilan mamlakatlar o'rtasidagi ishonch va bir – birini tushunish, bir – birlarining madaniyatlari bilan tanishishlariga yaqindan yordam berdi. Partiya va sovet apparati tomonidan siyosiy vasiylik bo'lmaganida bu aloqalar yanada keng va samarali bo'lishi mumkin edi.

II. bob. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda turizmning rivojlanishi

II. 1. §. Jahon mamlakatlarida turizmning rivojlanishi tajribalari.

O‘zbekiston Respublikasida qadimiy – madaniy – me‘moriy yodgorliklarning ko‘pligi jahon turistlarini hamisha o‘ziga jalb etib kelgan. Lekin yuqorida ko‘rganimizdek Sovetlar davrida tashqi mamlakatlar bilan turistik aloqalar va bu bilan bog‘liq mablag‘lar Markaz ixtiyorida bo‘lganligi sababli respublika iqtisodiyoti undan uncha foyda ko‘rmas edi. Natijada turizm ishi o‘lkada jahon andozalari darajasiga ko‘tarilmay, tashkiliy jihatdan orqada qoldi.

Vaholanki turizm dunyoning rivojlangan mamlakatlarida o‘sha vaqtlarda iqtisodiyotning daromadli sohalaridan biriga aylanib ulgurgan edi. Xalqaro turizm va ichki turizm bilan birgalikda mamlakatning iqtisodi, yashash sharoiti va boshqa tomonlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Xalqaro turizmning rivojlanishi bilan ayrim mamlakatlarda ko‘plab aholi ish bilan ta’minlandi. Mehmonxonalar, restoranlar, do‘konlar, muzeylar, maishiy xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar va boshqa tashkilotlarda ishlash, ya’ni xizmat ko‘rsatish uchun malakali, til biladigan xodimlardan tashqari oddiy xizmatchilar ham xizmat qilar edilar.

Ba’zi mamlakatlar uchun turizm katta biznesning tez rivojlanayotgan sohasiga aylandi. Masalan, tovar va xizmatlar eksportidan keladigan daromadlarda turizmning hissi ortib bormoqda. Buni Ispaniya misolida ham ko‘rishimiz mumkin. 1960 – yillarda Ispaniyada turizm industriyasi tashkil etildi¹. U chet el sayyohlarini mamlakatga jalb etib, industrlashtirish uchun zarur mablag‘ni topib berdi. Germaniya Federativ Respublikasi (GFR), Shveytsariya, Fransiyada vaqtincha ishlagan ispan ishchilari o‘z oilalariga yo‘llagan valyuta oqimi ham bu borada qo‘l keldi.

Yengillashtirilgan shartlar asosida Ispaniyada zamonaviy korxonalar qurayotgan xorijiy kapitalga ham keng yo‘l ochildi. Natijada 1960 yillarning ikkinchi yarmida sanoat rivojining sur’atlari boshqa kapitalistik mamlakatlardagidan ancha baland bo‘ldi. Ishlab chiqarish hajmi va aholi turmush

¹O‘zbekiston tarixi. – T., “O‘qituvchi,” 1996, B-203.

darajasi bo'yicha Ispaniya hali ilg'or g'arb davlatlaridan ancha orqada qolgan bo'lsa – da, masofa tobora qisqarib borar edi. Bu o'ziga xos ispan “iqtisodiy” mo'jizasi edi.

XXI asr boshlarida Ispaniya mamlakatining turizmdan olayotgan daromadi (34,0 milliard AQSH dollari) bo'yicha Yevropada birinchi, turistlar tashrifi (54,0 million kishi) va ularga ko'rsatilayotgan xizmatlari bo'yicha Fransiya dan keyin turmoqda. Mamlakatda turizm yuqorida ta'kidlaganimizdek ikkinchi jahon urushidan keyin tez rivojlandi. Turistlar miqdori 1950 yildagi 3 million kishidan. 1970 yilda 24 million, 1990 yilda 43 million, 1998 yilda 47,4 million va 2001 yilda 54,2 million kishini tashkil qildi.

Ispaniyada xalqaro turizmga bo'lgan e'tibor kuchayib borishi bilan birga, eng katta muammolardan biri bo'lgan aholini ish bilan ta'minlash va ishsizlik darajasini pasaytirish borasida hukumat bir qancha ishlarni amalga oshirdi. Mamlakatda 2001 yilda umuman turizm bilan aloqador ish o'rinlari soni 2.762.230 taga yetishiga erishildi. Bu ko'rsatkich har 5,4 ishchidan biri turizm sohasida xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanishini anglatadi. Ispan iqtisodchilarining hisob – kitob kitoblariga ko'ra, tezlikda rivojlanib borayotgan turizmda ish o'rinlarining soni 2011 yilga borib 3.701.670 tani, umumiy bandlikning 21,9 foizini tashkil etishi bashorat qilinmoqda.

Yuqorida ko'rib o'tilgan ma'lumotlardan xulosa qilib aytganda, Ispaniya iqtisodiyotini bugungi kunda turizmsiz tasavvur qilish qiyin. Mamlakat iqtisodiyotida turizmning bunday darajaga ko'tarilishiga sohadagi kadrlarning malakasini muntazam oshirish tufayli erishilmoqda.¹⁰

Turist bu qaysi mamlakat fuqorosi bo'lishidan qat'iy nazar u inson. Shu tufayli ular inson sifatida barcha xalqaro huquqlarga ega. Bu bo'yicha Butunjahon inson huquqlari deklaratsiyasi amal qilmoqda. Bu har bir insonning qayerda va qaysi holatda bo'lishidan qat'iy nazar ularning huquqlarini himoya qiladi.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida ham turist va turistik faoliyat bilan shug'ullanuvchi subyektlarning huquq va majburiyatlari o'z aksini topgan¹.

Turistlarning qonun hujjatlariga asosan boshqa huquq va majburiyatlarga ham egaligi. Bular alohida davlatlar o'rtasida tuzilgan shartnomalarda halqaro meyoriy hujjatlarda qayt qilingan normalarda o'z aksini topgan bo'lishi mumkin.

Turistlar bilan birga turistik faoliyat bilan shug'ullanuvchi subyektlarning ham huquq va majburiyatlari O'zbekiston Respublikasining «Turizm to'g'risida»gi qonunida aks ettirilgan. Qonun bo'yicha turistik faoliyat bilan shug'ullanuvchi subyektlar qator huquqlarga ega va zimmasida tegishli majburiyatlar ham belgilangan.

Turistlarni sug'urta qilish O'zbekiston Respublikasi «Turizm tug'risida»gi qonunga binoan majburiydir va u turistik faoliyat subyektlari tomonidan sug'urta faoliyati olib borish huquqiga ega bo'lgan tegishli sug'urta tashkilotlari bilan tuziladigan bitimlar asosida amalga oshiriladi.

Sug'urta, umuman olganda, juda murakkab va ko'p qirrali tushuncha sifatida talqin qilinadi. Ushbu atama insonning hayoti, mol-mulki, salomatligi, faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, turli sabablar tufayli sodir bo'ladigan tabiiy ofatlar va ko'ngilsiz hodisalar paytida moddiy qo'llab quvvatlashga qaratilgan tadbirdir. Agar birorta kutulmagan hodisa, ofat va noxush voqea natijasida insonning sog'ligi, hayoti va mulkiga zarar qilsa uni tezda tugatish va bartaraf qilish uchun qilingan jamg'arma sug'urta orqali amalga oshiriladi.

Sug'urta tushunchasiga O'zbekiston respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1993 yil 6 mayda qabul qilingan «Sug'urta to'g'risida»gi qonunda qo'yidagicha ta'rif berilgan. «Sug'urta inson faoliyatining turli sohalarida sodir bo'ladigan tabiiy ofatlar, favqulodda hodisa va boshqa voqealar natijasida yetkazilgan zarar hamda talofatlarni jismoniy va yuridik shaxslar to'lagan sug'urta badallari (sug'urta puli) dan hosil qilinadigan pul fondlari hisobidan to'liq va qisman qoplash yo'li bilan

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2005 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonda turizmni rivojlantirishga oid davlat dasturi to'g'risida»gi Farmoni. // «Xalq so'zi» gazetasi, 1992 y. 16 aprel

jismoniy va yuridik shaxslar manfaatlari sugʻurtalanishni taʼminlashga doir munosabatlar demakdir». Ushbu taʼrifning qonunda koʻrsatilganligi, hozirgi vaqtda umum eʼtirof etilganligi tufayli biz ham shunga toʻxtalishni maqsadga muvofiq deb, topdik. Zero, sugʻurta atamasi boʻyicha juda koʻp taʼriflar mavjudki, ularni nazariy jihatdan tahlil qilib, uning toʻgʻriligini asoslash uchun ushbu holatda zarurat yoʻq, deb oʻylaymiz.

Turizm sohasida ham sugʻurta asosan boshqa sohalar singari amalga oshiriladi. Bu sohada ham sugʻurtalovchi va sugʻurtalanuvchi oʻrtasidagi munosabat mavjud.

Sugʻurtalovchi deganda, qisqa qilib aytadigan boʻlsak, sugʻurta qiluvchi tashkilot tushuniladi. Tabiiy ofat yoki boshqa koʻzda tutilmagan sabablar natijasida koʻrilgan zararlarni sugʻurta haqidagi qonun yoki sugʻurta shartnomasi asosida qoplashni oʻz zimmasiga olgan tashkilot sugʻurtalovchi subyekt boʻlib hisoblanadi.

Sugʻurtalanuvchi deganda oʻziga tegishli mol-mulkni, sugʻurta qiluvchi yuridik shaxslar, oʻz mulki va hayotini sugʻurta qiluvchi jismoniy shaxslar, fuqorolar tushuniladi.

Turizm sohasida barcha turistlar majburiy tarzda sugʻurtalanuvchilardir. Bunda «bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun» tamoyili amal qiladi. Bir turistik guruhda 100 kishi boʻlishi mumkin. Hammasi albatta sugʻurta qilingan. Ammo sugʻurta mablagʻidan faqat bir kishigina, qandaydir bir ogʻir vaziyatga tushib qolganligi tufayli sugʻurtalanish mumkin. Demak, bu holda hamma bir kishi uchun tamoyili amal qiladi va h.k.

Sugʻurtalovchi va sugʻurtalanuvchi oʻrtasidagi munosabatlar asosan shartnoma asosida amalga oshiriladi. Bunda shartnomani buzgan taraf uchun sugʻurta javobgarligi ham koʻzda tutilgan, javobgarlik nima bilan ifoda etilishi ham sugʻurta shartnomasida koʻrsatilgan boʻlishi shart. Aks holda, oʻrtadagi nizo amaldagi boshqa qonun hujjatlari asosida hal qilinadi.

Nisbiy tizimda turist oʻzining mol mulkining 70 % ni sugʻurta qilgan boʻlsa tabiiy ofat yoki boshqa favqulotda hodisa natijasida koʻrgan zararining 70 %

sug'urtalovchi tashkilot tomonidan qoplanadi. Qolgan 30 % zarar turistlarning o'zlari hisobidan qoplanilishi lozim.

Birinchi xavf tizimida turist o'zini mol-mulkining hammasini yoki bir qismini sug'urta qilgan bo'lishi mumkin. Agar turistning 100,0 ming so'mlik mol-mulki bo'lib u 60,0 ming so'mni sug'urtalagan bo'lsa tabiiy ofat natijasida 90,0 ming so'mlik zarar ko'rsa ham sug'urtalovchi tashkilot tomonidan 60,0 ming so'm zarar qoplanadi. Qolgan 30,0 ming so'mi sug'urtalanuvchi hisobidan qoplanishi lozim. Bu yerda birinchi xavf umumiy mulkning sug'urtalangan qismi hisoblanadi. Bu 60,0 ming so'm. Qolgan 40,0 ming so'mi ikkinchi xavf bo'lib hisoblanadi.

Chegaralangan sug'urta ham, kam bo'lsada turizm sohasida qo'llanilishi mumkin. Lekin bu ko'pincha qishloq xo'jaligida qo'llaniladi. Agar qishloq xo'jaligida g'alladan 40,0 sentnerdan hosil olish ko'zda tutilgan bo'lsa, ammo, tabiiy ofat natijasida 50 gektarlik fermer xo'jaligining hosildorligi 30,0 sentnerni tashkil qilishi mumkin. Bu holda har gektaridan 10,0 sentnerdan jami 500 sentner ($50,0 \times 10$) g'alla zarar sifatida sug'urta yo'li bilan qoplanishi lozim. Bunda ma'lum chegara ko'zda tutilgan. Agar 35,0 sentnerdan hosil olganda edi har bir gektaridan zarar 5,0 sentnerni tashkil qilgan bo'lar edi va h.k.

Sug'urta munosabatlarini amalga oshirishda, ta'kidlanganidek, sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchilar ishtirok etadi. Jumladan, qonunda e'tirof etilishicha bu sug'urtalovchi sug'urtalanuvchiga sug'urtalangan mol-mulkni saqlab qolish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni butunlay yoki qisman to'lashga haqlidir. Bundan tashqari, sug'urtalovchi qonun yoki sug'urta shartnomasida nazarda tutilgan sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urtalovchi shartnomada qayd etilgan shaxsga sug'urta shartnomasida belgilangan muddatda belgilangan miqdorda sug'urta pulini (sug'urta tovonini) to'lashi shart.

Bordiyu sug'urta shartnomasida tomonlar qo'llayotgan huquqlar uchinchi tomon manfaatlariga daxl etsa, tomonlarining barcha hatti-harakatlari manfaatdor uchinchi tomon bilan kelishishlari lozim.

Bulardan ko'rinib turibdiki, turizm sohasida ham boshqa sohalar singari sug'urta munosabatlari o'ta murakkab va keng qamrovlidir. Shu tufayli ushbu

paragrafda juda murakkab va keng masalaning ayrimlarigagina to‘xtalish imkoni bo‘di xolos. Ushbu sohani to‘liq o‘zlashtirish uchun albatta turizmga oid qonunlar va boshqa meyoriy hujjatlar bilan birga O‘zbekiston Respublikasining 1993 yil 6 mayda qabul qilgan “Sug‘urta to‘g‘risida”gi qonunni ham to‘liq o‘rganishni taqozo qiladi.

XXI asr boshlariga kelib tovar va xizmatlar eksportidan keladigan daromadlarda turizmning hissasi Ispaniyada 60 foizni, Avstriyada – 40, Shveytsariyada – 80 foizni tashkil etdi. Chet el turizmi “ko‘rinmas eksport” deb ham ataladi¹. Chunki mamlakatga tashrif etadigan sayyohlar shu mamlakat moddiy va madaniy boyliklarini xarid qiladilar. Bu mamlakatning xizmat vositalaridan foydalanadilar. Bu esa valyuta tushumini ta‘minlaydi. Dunyoda turistlarni ko‘proq yuboruvchi davlatlar va turistlarni ko‘proq qabul qiluvchi mamlakatlarga – AQSH, Germaniya, Angliya, Fransiya kabi rivojlangan davlatlar kiradi. Ko‘proq qabul qiluvchi davlatlar esa Avstriya, Shvetsiya, Gresiya, Ispaniya kabi davlatlardir. Bular qatoriga O‘zbekiston Respublikasini ham kiritish mumkin.

Hozirgi vaqtda xalqaro turizm bozorida O‘zbekiston Respublikasining salohiyatini oshirish uchun, avvalo, turistik bozorni vujudga keltirish kerak. Buning uchun turistik korxonalarga iqtisodiy mustaqillik berish va ular o‘rtasida raqobat o‘rnatish zarur. Bundan tashqari, turizmni rivojlantirishda chet el kapitalidan foydalanish zarur. Turistik soha bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxs va korxonalarga berilayotgan imtiyozlarni kengaytirish lozim. 2000 yilda 600 mingdan ortiq chet el turistlari vatanimizda mehmon bo‘ldilar. Ularning har biri ming AQSH dollaridan ortiq valyuta sarf qildi. Mana, turizmning iqtisodiy samaradorligi.

O‘zbekiston turizmga mos keluvchi resurslari bilan dunyoga mashhur. Tarixdan ma‘lumki, mamlakatimiz hududidan qadimgi “Buyuk ipak yo‘li” o‘tgan bo‘lib, bu yerda xalqaro munosabatlar faollashgan, o‘zaro madaniy aloqalar o‘rnatilgan, chunki ob – havo sharoitlari yil davomida mehmonlarni qabul qilishga mos kelgan. O‘zbekistonning me‘moriy yodgorliklari ham chet ellik turistlarning

¹ Eng yangi tarix.. – T., “O‘qituvchi,” 1995, B-100

diqqat – e'tiborini o'ziga tortmay qolmaydi. Bugungi kunda xalqaro turizmning qanday yo'lga qo'yilganligiga to'xtaladigan bo'lsak, Butun jahon turistik tashkiloti (WTO) bashoratiga ko'ra, 2018 yilga borib sayyoramzda turistlar soni 1,6 milliard kishiga yetadi. Turizm ikkinchi jahon urushidan keyin yuqorida ta'kidlaganimizdek rivojlana boshladi. 1950 yilda 25 million kishi xalqaro sayohatga chiqqan bo'lsa, 1960 yilda bu raqam 69 million kishiga ko'paygan. Bu ko'rsatkich 1970 yilda 165 milliontaga yetgan bo'lsa, 1980 yilga kelib 284 million nafardan ortib ketdi. 1990 yilda 455 million kishi, 1995 yilda esa 561 million kishi chet ellarga sayohat qilgan.

Shulardan 333 million kishi Yevropaga, 110 million kishi Amerikaga tashrif buyurgan bo'lsa, 100 millionga yaqin kishi Osiyoda sayyohatda bo'lgan. 2000 yilga kelib 600 milliondan ortiq kishi xalqaro turistik sayohatga chiqishgan. Ulardan tashqari har bir mamlakat ichida amalga oshiriladigan ichki turizm ham mavjud. Ichki turizm butun turistik faoliyatning 60 – 80 foizini tashkil etadi. Demak, jahon bo'ylab har yili deyarli 2 milliarddan ortiq kishi turistik sayyohatlarga chiqadi.

II. 2.§. O‘zbekistonda turizm sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari.

Sobiq sovetlar hukmronligi davrida tashqi mamlakatlar bilan turistik aloqalar va bu bilan mablag‘ markaz ixtiyorida bo‘lganligi sababli respublika iqtisodiyoti undan unchalik naf ko‘rmas edi. Natijada turizm ishi o‘lkada jahon andozalari darajasiga ko‘tarilmay, tashkiliy jihatdan orqada qoldi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin turizm ishini yaxshilash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 27 iyuldagi Farmoni bilan sayohat sohasida respublikada yagona siyosatni amalga oshiruvchi davlat organi – “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi tuzildi. U mamlakatda shu sohadagi bir qancha davlat va jamoat tashkilotlari, birlashmalar negizida yangitdan tashkil topdi.

Milliy kompaniya O‘zbekiston Respublikasida sayyohlikning huquqiy, iqtisodiy asoslarini shakllantirib, jahon andozalariga mos keladigan sayyohlik tizimini tarkib toptirib bormoqda. Xorijiy investisiyalar jalb etilib zamonaviy sayyohlik majmualari qurilmoqda. Tarixiy me‘morchilik obidalari ta‘mirlanishiga, ularni targ‘ibot, tashviqot qilish ishiga ahamiyat berilmoqda. “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi tarkibiga viloyatlardagi tizim tashkilotlari – mintaqaviy bo‘linmalar, shuningdek “Otel” – O‘zbekiston,” “Shodlik” qo‘shma korxonalari, “Sayohat,” “Chorsu” tashqi iqtisodiy ishlab chiqarish majmualari, “O‘zintur,” “O‘zmaxsustur” hissadorlik jamiyatlari “O‘zbekturqurilish” tashqi iqtisodiy ishlab chiqarish birlashmasi kirdi¹.

1993 yili Bali (Indoneziya davlati) shahrida bo‘lib o‘tgan Butunjahon Turistik tashkilotining to‘la huquqli a‘zoliciga qabul qilindi. Frankfurt, Moskva (Rossiya), London (Buyuk Britaniya) shaharlarida “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasining vakolatxonalari faoliyat ko‘rsata boshladi. Turizmning bugungi kundagi ahamiyati va chet el turizmi respublika iqtisodiyotining yetakchi tarmog‘iga, uning valyuta tushumlarini to‘ldiradigan muhim manbaga aylanib

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 27 iyuldagi “O‘zbekturizm Milliy kompaniyasini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni. // «Xalq so‘zi» gazetasi, 1992 y. 28 iyul.

bormoqda. Shu sababli shinam mehmonxonalar, kempinglar qurilishini bundan buyon ham amalga oshiraverish, turizmning rivojlangan infrastrukturasini shakllantirish, sayyohlar boradigan joylarni obod qilish bilan ham shug'ullanaverish kerak. Milliy – tarixiy va madaniy yodgorliklarni ta'mirlashga alohida e'tibor berish zarur. Bu esa ajnabiy sayyohlarni jalb etish uchungina emas, balki avvalo xalq qadriyatlarini qayta tiklash, yosh avlodni tarbiyalashda ham alohida ahamiyatga ega.”

1995 yili “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi 458,4 mingdan ziyod kishiga, shu jumladan 92 mingdan ortiq xorijiy sayyohlarga xizmat ko‘rsatdi. Milliy kompaniya tizimida 22 ta mehmonxona, 8 ta turistik bazalar, 2 ta kemping va bitta dam olish zonasi ishladi. O‘zbekiston Respublikasida 1995 yili Toshkent shahri (2344 o‘rinli), Samarqand viloyati (1021 o‘rinli), Buxoro viloyati (1029 o‘rinli), Urganch – Xiva shaharlari (653 o‘rinli) asosiy turistik markazlar sifatida faoliyat ko‘rsatdi¹.

Bular qatoriga 1995 yildan boshlab Termiz shahri ham qo‘shildi. Termiz shahrida 1996 yilda ikki mingdan ortiq xorijiy sayyohlarga xizmat ko‘rsatilgan bo‘lsa, 1997 yilda 3,3 ming kishiga, O‘zbekiston fuqarolaridan 1,7 ming sayyohlarga xizmat ko‘rsatildi. Sayyohlarga ko‘rsatilgan xizmatdan olingan foyda 16, 830 ming so‘mni (1996 yilga nisbatan 7,778 ming so‘m ko‘p) yoki 185.9 foizni tashkil qildi. Surxondaryo viloyatining Jarqo‘rg‘on tumanida ilk bor vohada yagona bo‘lgan “Minor” sayyohlik – turistik xususiy firmasi (1990 yili tashkil etilgan) birgina 2002 yilning o‘tgan davrida 765 nafar vohadoshlarimizni tarixiy – me’moriy obidalari bilan mashhur Samarqand, Buxoro, Turkiston, Xiva shaharlariga sayyohlik – turistik xususiy firmasi (STXF) orqali sayohat qilib qaytdilar.

Respublikamizga tashrif buyurgan AQSH, Yaponiya, Tayvan’, Fransiya, Germaniya, Isroil kabi davlatlardan tashrif buyurgan yigirmadan ortiq sayyohlar firma xizmatidan mamnun bo‘ldilar. 2002 yilda yana 1800 dan ortiqroq maktab o‘quvchilari va kichkintoylarni ham diqqatga sazovor, tarixiy, madaniy obidalarga,

¹ O‘zbekistonning yangi tarixi. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. – T., “Sharq,” 2000, 3 – jild, B-119

xushmanzara go‘shalarga sayyohatlari uyushtirildi. Shunisi diqqatga sazovorki, firma sayyohat ixlosmandlariga Respublikamiz bo‘ylab yetti xil sayyohlik yo‘nalishlarini taklif etdi.

Bular: “Jahon sivilizasiyasining uchinchi beshigiga – million yillar qa’riga sayohat” (Zarautsoy, Teshiktosh g‘orlariga sayyohat), “Rum fotihi o‘tgan yo‘llar uzra” (Aleksandr Makedonskiy bosqini asoratlari – o‘sha davr xarobalari, yodgorliklari), “Qadimiy Termiz – budda dini va madaniyati markazi” (Fayoztepa, Qoratepa, Dalvarzintepa), “Islomiy me’moriy obidalar markazi,” “Biz bilan birga O‘rta Osiyodagi Buyuk Ipak yo‘lini kashf eting,” “Jayhun sohilidagi qadimiy va hamisha navqiron shahar” yo‘nalishlarida Surxondaryo viloyatidagi moziy qatlamlarida tiklangan me’morchilik asarlari diqqatga sazovordir. Termiz shahrining o‘tmishdagi va bugungi madaniy qiyofasini taqqoslash imkoniga ega bo‘ldilar. “Sharqning duru javohirlar shodasini o‘zingiz kashf eting” yo‘nalishi bo‘yicha so‘lim Surxon vohasining bugungi orombaxsh, jannatmonand go‘shalari – Omonxona muqaddas bulog‘i, ming yillik chinorlar, tabiiy sovutgich (xolodil’nik), Sangardak sharsharalari kabi tabiat mo‘jizalariga olib borildi.

Statistik ma’lumotlarga qaraganda 2008 yilda Samarqand shahriga bir yuz yigirma bir mingdan ziyod sayyoh, jumladan ellik ming atrofida xorijiy sayyohlar kelib ketishdi. Ularga 4,5 milliard so‘mlik xizmat ko‘rsatilib, buning evaziga 350 million so‘m sof daromad olindi. 2009 yilga kelib esa mehmonlarning ko‘hna shaharga tashrifi sezilarli darajada pasayib ketdi. Aniqrog‘i, 2009 yil mobaynida Samarqand shahriga 29450 nafar xorijlik sayyohlar keldi. Samarqand ziyoratiga otlangan Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) va mamlakatimiz fuqarolari soni bori yo‘g‘i 92636 nafarga yetdi. Ko‘rsatilgan xizmat 3 milliard 600 million 50 ming so‘mni tashkil etib, sof foyda esa 280 million so‘mga tushib qoldi. Mutaxassislar buni 2001 yilning 11 sentabrida yuz bergan Amerika fojiasi, shuningdek Afg‘oniston voqealari va bir qator Osiyo mamlakatlarida tarqalgan xavfli va yuqumli kasalliklar bilan bog‘lashmoqda¹. Ana shu voqealar tufayli

¹ Eng yangi tarix.. – T., “O‘qituvchi,” 1995, B-113

O‘zbekiston Respublikasini jahonning turli mamlakatlari bilan bog‘laydigan aviareyslarning sonining ham kamayib ketganida deb hisoblashmoqda.

Ammo bu qiyinchiliklardan qo‘rqmasdan mamlakatimizda har tomonlama amalga oshirilayotgan izchil islohotlar bilan Samarqanddagi sayyohlik xizmati ko‘rsatish va servis sohalarining rivojlanishini yanada yaxshilash yo‘llarini izlash lozim bo‘ladi. Biroq Samarqanddagi xizmat ko‘rsatish va servis sohalarining rivojlanishini hamohang deya olamizmi? Avvalo, mehmonxonalarda xorijiy sayyohlarga yetarli sharoit yaratib berishga e‘tibor qaratish kerak. Ko‘hna shaharning faxri sanalmish to‘rt yulduzli “Afrosiyob – palas” mehmonxonasi majmuasi o‘z bag‘riga bir yo‘la besh yuz mehmonni qabul qilish imkoniga ega.

Ulardagi barcha xonalar jahon andozalari darajasida qurilgan. Bar, restoran, cho‘milish basseyni, dam olish joylari – hamma – hammasi ko‘ngildagidek. Lekin, bular xorijlik sayyohlar ehtiyojini to‘liq qondira olmaydi. Birgina telefon aloqasini oladigan bo‘lsak, biron – bir xonadan to‘g‘ridan – to‘g‘ri xorij bilan bog‘lanish imkoni yo‘q. Bunday hol sayyohlarning hafsalasini pir qilishi, shubhasiz. Mehmonxona majmuasi xodimlarining fikricha, endilikda bu kamchilikni tuzatishning iloji yo‘q. Sababi, Sovet tuzumi davrida bu boradagi loyihalashtirish noto‘g‘ri bajarilgan.

Shu kabi nuqsonlar asosida qaraladigan bo‘lsa, “Afrosiyob – palas” mehmonxonasi xalqaro andozalar talablari bo‘yicha uch yulduzli mehmonxonalar darajasiga to‘g‘ri kelar ekan. Mustaqilligimizning o‘n ikki yilligi arafasida foydalanishga topshirilgan “Prezident – palas” mehmonxonasida esa bunday xatoliklar takrorlanmaganligi quvonarli albatta. Chet elliklar ikki yuz ellik o‘rinli bu mehmonxonani haqiqiy to‘rt yulduzli mehmonxona sifatida e‘tirof etishayapti.

Ayni paytda Samarqandda “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasining litsenziyasiga ega bo‘lgan yigirma yettita mehmonxona mavjud¹. Ulardan ikkitasi – “Prezident – palas” va “Afrosiyob – palas” mehmonxonalari davlatga tegishli “Sentral’ – Samarqand” O‘zbekiston Shveysariya qo‘shma korxonasiga qarashli “Otel’ – Samarqand” esa aksionerlik jamiyatidir. Servis xizmati ko‘rsatish va uni

¹ Quvvatov N. O‘zbekistonda turizm: bugun va erta. Jamiyat va boshqaruv jurnali. 2000 yil, 1 – son, B- 97

rivojlantirish har bir mehmonxona ma'muriyatining o'ziga bog'liq. Shu sabab narxlar ham turlicha. Masalan, "Prezident – palas" mehmonxonasida 2004 yil boshida xorijlik sayyoh bir kecha – kunduz dam olishi uchun 55 AQSH dollari, "Afrosiyob – palas" mehmonxonasida esa 32 AQSH dollari to'laydi. Bu raqam "Sentral' – Samarqand" mehmonxonasida 12 dollarni, "Otel' – Samarqand" mehmonxonasida esa 8 dollarni tashkil etdi.

Xususi mehmonxonalar esa xorijlik mehmonlardan kelishilgan narxda o'rtacha 8 - 10 AQSH dollari olishmoqda. Samarqand shahridagi mehmonxonalar 2003 yilda o'z imkoniyatlarining bor yo'g'i 25 – 30 foizi hajmida xizmat ko'rsata oldilar xolos. Mijozlarning kamaygani sababli xizmat haqini ham pasaytirishga majbur bo'ldilar. Birgina misol, Samarqand shahriga kelgan sayyohlarning aksariyat qismi Buxoro va Xiva shaharlariga sayyohat safarini ko'zda tutadilar. Ularning hohishini amalga oshirish uchun "O'zbekturizm" milliy kompaniyasining bo'linmasi yetarli avtobuslarga ega. Bo'linmada 34 ta avtobus mavjud edi¹. Lekin Samarqand shahri bilan Buxoro shahrining orasi ikki qadam yo'l emas. Yozning jaziramasini - yu, qishning izg'irinida ba'zan kunu – tun yo'l yurishga to'g'ri keladi. Tabiiyki bunday paytda xorijlik mehmon toliqadi, lekin yo'lda dam olish uchun esa imkon topilmaydi.

Demak, katta yo'l bo'ylarida ham yuqori sifatli servis xizmati ko'rsatadigan kempinglar, majmualar qurishni ham ko'paytirish kerak. Bu borada Samarqand viloyatining Paxtachi tumanida ilk qadam qo'yilgani quvonarli bo'ldi. "Zafar Osiyo" mas'uliyati cheklangan jamiyati ajoyib kemping barpo etdi. Bu yerda restoran, oshxona, mehmonxona, avtomobillarga yonilg'i quyish shoxobchasi va boshqa barcha imkoniyatlar muhayyo. Xorijliklar ham shu joydagi xizmat turlaridan qoniqish hosil qilmoqdalar. Sayyohlar ko'nglini to'ldirmayotgan muammolardan yana biri – bu Samarqand shahrini kechasi ko'ngildagidek yoritish masalasi. Ochig'i, bu muammo ko'pdan beri aytib kelinayotgan bo'lsa – da, ijobiy yechimini topmayapti.

¹ Quvvatov N. O'zbekistonda turizm: bugun va erta. Jamiyat va boshqaruv jurnali. 2000 yil, 1 – son, B- 82

Xo'sh, nega endi mehmonlarning, aytaylik, Registon atrofida yoki eski shahar hududida oqshom chog'i chiroyli manzaralardan zavqlanishi, o'zbekona lutflardan bahra olishi uchun qulay sharoitlar yaratish mumkin emas? Ehtimol tungi registonni jonlantirish maqsadida bu yerda milliy choyxona, savdo rastalari, milliy hunarmandchilik yarmakalari tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Qadimiy va navqiron Xiva shahri haqidagi beqiyos ta'rifu – tavsiflarni, sifatlashlarni esa ko'plab xorijiy mehmonlarning o'z og'izlaridan eshitgansiz. Ispaniyalik sayyoh uni "O'rta Osiyoning gavhari" degan bo'lsa, Ingliz mehmoni esa bir so'z bilan "Mo'jiza" deb, yaponiyalik sayyohlar esa shunday joyni kelib ko'rmaslik, katta ma'naviy boylikdan bebahra qolish deb bekorga e'tirof etishmagan. 2002 yilda Xiva shahrida xususiy mehmonxonalar soni yettitani tashkil etdi. Yaqin kelajakda esa ular soni o'ttiz beshtaga yetadi. Shu ish yuzasidan Xiva shahrida katta amaliy tadbirlar ko'rilmoqda. Bu bejiz emas albatta. Chunki mehmonlar, sayyohlar soni uzluksiz ko'payib bormoqda.

Ular orasida ayniqsa, chet elliklar ko'pchilikni tashkil etmoqda. Xiva shahridagi ko'rkam va shinam mehmonxonalar haqida gap ketganida birinchi navbatda "Arqonchi" mehmonxonasi tilga olinadi. Buning ham sababi bor albatta. Chunki u xususiy mehmonxonalar ichida ilk qaldirg'ochidir. Taniqli tadbirkor Sobirjon Hasanovning ota – bobolari hunarmand – kosib ustalar bo'lishgan. Xivaning ulli bozorida ular tayyorlagan arqonlar xaridorgir bo'lgan. Sobirjon Hasanov yangi davr va erkinlashtirish tufayli xususiy ishni rivojlantirishga mahkam bel bog'ladi. O'zining shaxsiy firmasini ochib uni "Arqonchi" deb nomladi. Avvaliga kvartira byurosi sifatida patent bilan ish boshladik – deydi mehmonxona direktori Sobirjon Hasanov. 1994 yildan xususiy firma ochildi. Ayniqsa, Xiva shahrining 2500 yillik to'yini nishonlash haqidagi qaror bizga qanot bo'ldi. Hokimning qarori bilan 1107 kvadrat metr joy ajratildi. "O'zta'mirloyiha" ilmiy – tadqiqot instituti mehmonxona loyihasini chizib berdi. Ikki yilga 750 ming so'm miqdorida kredit olindi. Mehmonxona o'ttiz o'rinli bo'ldi. Komforti yaxshilandi. Ikki yilda kreditdan ham qutulindi. "Arqonchi"ga 2011 yilning to'qqiz oyi mobaynida 1220 nafar sayyohlar tashrif buyurdi. Shu davr davomida 19

million 428 ming 834 so‘m ishlab topildi. To‘rt million 683 ming 737 so‘m naqd pul bankka topshirildi. Besh million 761 ming 495 so‘m sof foyda olishga erishildi. Mehmonxona kompyuteri internetga ulandi. Ularning endigi rejalari esa o‘zlarining avtobuslariga ega bo‘lish, xorijlik turistlar bilan to‘g‘ridan – to‘g‘ri shartnomalavr tuzishdir. 2002 yilga kelib Sobirjon Hasanov bir emas, ikkita xususiy mehmonxona sohibi bo‘ldi.

Ushbu mehmonxonada o‘n yil davomida u yigirma mingdan ortiqroq xorijlik mehmonlarni qabul qildi. Ularga yuqori talablarga muvofiq xizmat ko‘rsata oldi. 2001 yili tadbirkor 20 million so‘m miqdorida imtiyozli kredit oldi. Shu hisobga “Sobir arqonchi” deb nomlangan yana bir mehmonxonani qurib foydalanishga topshirdi. U “Arqonchi” mehmonxonasidan farqli ravishda Dishan qal’ada joylashgan va bir yo‘la yigirma nafar mehmonga yuqori andozalar darajasida xizmat ko‘rsata oladi. Sobirjon Hasanov Toshkentda o‘tkazilgan Butun jahon sayyohlik yarmarkasida ham ishtirok etib, yuqori sovrinlarni qo‘lga kiritdi. 2004 yilga kelib Xiva shahrida o‘n ikkita mehmonxona va ikkita sayyohlik firmasi faoliyat yuritdi. Masalan, 2005 yilda Xivaga yetti ming nafarga yaqin sayyoh kelgan bo‘lsa, 2008 yili bu ko‘rsatkich o‘n to‘rt ming nafarni tashkil etdi¹.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi ham bu sohada anchagina yutuqlarni qo‘lga kiritib kelmoqda. Qoraqalpog‘iston zaminida ham yuzlab tarix va arxeologiya yodgorliklari mavjud. Ana shulardan biri Ayoqzal’a yodgorliklar majmuasidir. Ayoq qal’a miloddan avvalgi IV – II asrlarga oid uchta qadimiy qal’a xarobalaridan iborat. Ko‘pchilikka ma’lum bo‘lgan Xorazm arxeologiya va etnografiya ilmiy safari ishtirokchilari 1937 yildan boshlab uzoq yillar davomida Ayoqzal’ada tadqiqotlar olib bormoqdalar. U yerdan asosan Kushon podsholigi davriga oid sopol idishlar, mehnat qurollari, aslahalar, zeb – ziynat buyumlari hamda tangalar, shu jumladan, imperator Kanishka zarb ettirgan pullar topilgan. Qadimiy qal’aning yonida uzunligi yigirma kilometrdan ortiq, eni besh kilometr

¹ To‘xliyev N. “Osiyo va bozor. Bozorga o‘tishning mashaqqatli yo‘li” – T., “O‘zbekiston,” 1999, 52 – 53 b.

boradigan ko‘l bor. Ayozko‘l deb nomlanadigan bu ko‘lning suvi tiniq, minerallashuv darajasi u qadar yuqori emas.

Qal’a va ko‘l azaldan sayyohlik tashkilotlarining diqqat markazida bo‘lib kelgan. 1999 yili “Ayozqal’atur” sayyohlik firmasi tashkil etildi. 1999 yilning o‘zidayoq 170 metr balandlikda joylashgan Ayoz qal’a qo‘rg‘oni qoshida uchta o‘tov, boshqa zarur binolar, bir necha so‘rilardan iborat o‘ziga xos kemping barpo qilindi. Shuningdek, firma sayyohlar uchun mo‘ljallangan zamonaviy avtobus, motorli qayiq, to‘rt – beshta tuya xarid qildi. O‘sha tashkil etilgan paytdan buyon ularning barchasi sayyohlar manfaatiga xizmat qilib kelmoqda¹.

Oradan ko‘p vaqt o‘tmay, “Ayozqal’atur” firmasining dovrug‘i uzoqlarga borib yetdi. Shu kungacha qal’a va ko‘lda, shu atrofdagi qanchadan – qancha qadimiy yodgorliklarda Fransiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Yaponiya va boshqa mamlakatlardan kelgan sayyohlar Qoraqalpog‘iston Respublikasining janubiy ekzotikasi bilan tanishdilar. O‘z vaqtida AQSH senatori Al’bert Gor ham Ayozqal’a yodgorliklar majmui bilan tanishib, unga katta baho bergan edi. “Ayozqal’atur” sayyohlik firmasi “O‘zintur,” “Sayramtunist,” “Toshkenttunist,” “Buxorotunist,” “Xorazmturizm” va boshqa sayyohlik tashkilotlari bilan o‘zaro shartnoma asosida ishlamoqda. Sayyohlik yarmarkalarida faol ishtirok etmoqda. Ingliz va rus tillariga reklama bukletlari chop etildi. Shuningdek sayyohlar sonini ko‘paytirish maqsadida kempingga olib boradigan yo‘lning bir qismini sozlash, elektr ta’minotini yaxshilash, shu yerning o‘zidan artezian qudug‘i qazish, eng muhimi internet orqali sayyohlik saytlariga chiqish kabi ba’zi muammolarni ham hal etib borish lozim bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasida sayyohlik turlaridan biri avtotransport sayyohati ham muhim o‘rin egallaydi. O‘zbekiston Respublikasida avtotransport sayyohati keng tarqalgan tur hisoblanadi. Uning marshrutlari respublikaning barcha viloyatlari, sayyohlik markazlaridagi manzarali dam olish manzillari, qo‘shni mamlakatlar bo‘ylab o‘tadi. Avtotransport marshrutlarida 1995 yilda 96 ming sayyohga xizmat ko‘rsatildi.¹⁹

¹ O‘zbekistonning yangi tarixi. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. – T., “Sharq,” 2000, 3 – jild, B-128-129

O'zbekiston Respublikasi bugungi kunda avtotransport yo'llarini jahon avtotransport yo'llari bilan bog'lash borasida kattagina ishlarni amalga oshirmoqda. Bu sohada Buyuk Ipak yo'lini tiklash uchun, uning tarixiy ahamiyatini hisobga olib birinchi marta Bryussel uchrashuvida Yevropa va Osiyoni bir – biriga bog'laydigan "Yevropa - Kavkaz Osiyo" transport yo'lagi - TRASEKA ni barpo etish masalasi ko'rib chiqildi va bu bo'yicha Deklarasiya qabul qilindi.

Bu yo'lakdan Sharq ham G'arb ham birday manfaat topadi. Markaziy Osiyo va Kavkaz uchun jahon bozoriga keng yo'l ochiladi. Yevropa mamlakatlari uchun esa o'z mahsulotlarini Kavkaz va Markaziy Osiyo bozorlariga kiritish, mazkur mintaqalarda o'zlarining moliyaviy, turistik ishtirokini kengaytirish imkoniyati tug'iladi. 1998 yil 6 noyabr kuni Toshkentdagi "Interkontinental" mehmonxonasining Amir Temur zalida YUNESKO Ijroiya Kengashi 155 – sessiyasining yakuniy yig'ilishi bo'lib o'tdi. 155 – sessiya 19 oktabr kuni Parijda ochilgan edi.

Sessiyada tashkiliy masalalardan tashqari, dunyoviy madaniyat ravnaqiga bag'ishlangan uchta hujjat qabul qilinishi mo'ljallangan edi. Ikkinchi hujjat - "Dunyoviy madaniyat yo'lida" deb nomlangan sohalararo loyihaning baholanishi haqida edi va ular Parijdagi yig'ilishda qabul qilindi. Ma'lumki, mamlakatimiz uchun dengizga olib chiquvchi eng yaqin yo'l Afg'oniston orqali Eron hududiga tutash dengiz portlariga va Omon ko'rfaziga chiqishdir. Shu bois ham O'zbekiston Afg'oniston hududida avtomobil yo'llari qurish g'oyasining tashabbuskori bo'lib maydonga chiqdi va u Xalqaro transafg'on yo'lagi sifatida tarix sahifasidan joy oldi.

Davlatimiz rahbari Islom Karimovning 2003 yil 17 – 18 iyun kunlari Eron Islom Respublikasiga tashrifi davomida o'zaro transport kommunikasiyalarini rivojlantirish masalalari muhokama qilindi¹, unda Afg'oniston muvaqqat hukumati raisi Hamid Karzay ham ishtirok etdi. Uning natijasi sifatida uch tomonlama: uzunligi 2900 kilometrlik Chahbahor – Milak – Dilorom – Hirot – Termiz –

¹ O'zbekistonning yangi tarixi. Mustaqil O'zbekiston tarixi. – T., "Sharq," 2000, 3 – jild, B-140

Toshkent, 2912 kilometrlik Bandar Abbos – Dugaron – Hirot – Termiz – Toshkent, 2033 kilometrlik Bozorgon – Tehron – Mashhad – Dugaron – Hirot – Shibirg‘on – Mozori Sharif – Termiz – Toshkent yo‘nalishlarini, ya‘ni Xalqaro transafg‘on yo‘lagini barpo etish yuzasidan bitim imzolandi.

Bundan maqsad har uch davlat hamda mintqa mamlakatlarining savdo – iqtisodiy, madaniy va sayyohlik aloqalarini yanada rivojlantirish, ularning Fors va Omon ko‘rfazlariga, Hind okeani, Yevropa hamda xalqaro dengiz yo‘llariga chiqishlarini ta‘minlashdir. Haqiqatan, bu yo‘lak mintqa mamlakatlari, shu jumladan, okeanga olib chiquvchi eng qisqa yo‘l sifatida O‘zbekistonning iqtisodiy manfaatlariga to‘la mos keladi. Chunki ushbu yo‘nalish bo‘yicha dengiz portlariga olib borilgan bir tonna yukning narxi 65 dollarga tushadi. Boshqa yo‘nalishlar, xususan, Toshkentdan Sankt Peterburgdagi portga qadar bo‘lgan masofa – 4545 km, Rigagacha – 4800 km, Klaypedagacha – 5070 km, Murmanskacha – 6587 kilometrni tashkil etadi.

Demak, bu uzoq masofalar turistik sayyohatlarning ham cho‘zilib ketishiga va kundalik xarajatlarning oshib borishiga olib keladi. Xalqaro transport kommunikasiyalarining barpo qilinib borishi ana shunday ko‘lam kasb etib borayotir. Unda Osiyo va jahonning ko‘plab eng yirik moliyaviy idoralari, xalqaro tashkilotlari ham qatnashishayapti. Bu loyihalarning tashabbuskori va faol ishtirokchisi bo‘lib yurtimiz maydonga chiqayoiganligi esa, uning yaqin kelajakdagi taraqqiyot ko‘lamlari va dunyodagi mavqeining oshib borayotganidan darak beradi.

Havo yo‘llari sayyohati marshrutlari O‘zbekiston Respublikasining bir necha o‘nlab shaharlari yo‘nalishi, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari, shuningdek Buyuk Britaniya, Germaniya, Turkiya, Eron, Birlashgan Arab amirliklari, Saudiya Arabistoni, Pokiston, Koreya, Gresiya, Tailand, Malayziya, Xitoy va Hindiston bo‘ylab o‘tadi. Bu marshrutlarda 1995 yili “O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy aviakompaniyasining samolyotlari bilan yigirma ming sayyohga xizmat ko‘rsatildi¹.

¹ Eng yangi tarix.. – T., “O‘qituvchi,” 1995, B-74

Temir yo'llar marshrutlarida "Buyuk ipak yo'li" bo'ylab safar qilish, Markaziy Osiyo, umuman Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) davlatlari yirik shaharlari bo'ylab sayyohat qilish mumkin. Bu marshrutda 1995 yilda 17,5 ming kishiga xizmat ko'rsatildi. O'zbekiston Respublikasida fuqarolarga turizmning quyidagi turlari bo'yicha xizmat ko'rsatilmoqda: madaniy sayr – tanishuv, sport – sayyohlik (chang'i sporti, velosipedda va avtomobilda sayyohlik, qoya oshish, arxeologik, g'or sayrlari, tuyalarda sayyohat va boshqalar), Oilaviy sayyohlik: bolalar marshruti; talabalar marshruti; biznesmenlar uchun marshrut; davolanish – maqsadli marshrut; dam olish marshruti va boshqalar.

Turizm sohasidagi kadrlar Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent mehmonxona xo'jaligi texnikumi, o'zbek – turk mehmonxona xo'jaligi, turizm litseyi va boshqa o'quv yurtlarida tayyorlanadi. 1995 yildan Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida "Xalqaro turizm" fakul'teti ochildi. Kadrlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlashni "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi huzuridagi Respublika o'quv ishlab chiqarish majmuasi amalga oshirmoqda. Buxoro viloyatida 2003 yilda ish boshlagan Turizm kasb – hunar kollejida "Mehmonxona, restoran xo'jaligi va oshpazlik" loyihasining taqdimoti bo'lib o'tdi. Tadbirning bu dargohda o'tkazilishi bejiz emas edi. Sababi, 2003 yilda ish boshlagan turizm kasb – hunar kollejining moddiy – texnika o'quv bazasini mustahkamlash ushbu loyihada belgilangan edi. Bu kollejning Buxoro shahrida ochilishiga sabab, shaharni ziyorat qilish uchun kelayotgan sayyohlar soni yil sayin ko'payib bormoqda. Ularga xalqaro andozalar asosida xizmat ko'rsatish turizmni rivojlantirishning muhim omilidir.

Biroq mehmonxona va restoran xo'jaligi, turizm va xalqaro taomlar oshpazligi bo'yicha muammolar ham yo'q emas. Turizm kasb – hunar kollejining tashkil etilishi esa bu muammolar yechimida muhim o'rin tutadi. 2002 yilda Buxoro texnologiya kasb – hunar kollejida turizm, mehmonxona va restoran xo'jaligi yo'nalishi bo'yicha 50 nafar yigit – qizlar o'qishga qabul qilindi. Ular bir yil mobaynida yevropacha taomlar texnologiyasini o'rgandilar. Xorijiy tillarni o'zlashtira boshladilar. 2003 yilda esa mehmonxona va restoran xo'jaligi, turizm

va xalqaro oshpazlik ixtisosliklari bo'yicha 75 nafar yigit – qizlar o'qishga qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni takomillashtirish, shuningdek menejment, marketing, turizm va servis xizmati ko'rsatish sohasida kadrlar salohiyatini mustahkamlash maqsadida O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2004 yil 26 martda Samarqand kooperativ institutini Samarqand iqtisodiyot va servis institutiga aylantirish va institutning asosiy vazifasi qilib (uning bir qismi bo'lgan) xalqaro turizm, turizm menejmenti, turizm bo'yicha operatorlik xizmatlari biznesi, xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlari iqtisodiyoti va uni tashkil etish masalalari to'g'risida qaror qabul qildi¹.

Shuningdek qarorda 2008 – 2009 o'quv yilidan boshlab “Turizm” va “Servis” yo'nalishlari muiaxassisliklari bo'yicha magistrlar tayyorlashni tashkil etish. Shu davr mobaynida tegishli moddiy – texnik bazani va professor – o'qituvchilar salohiyatini shakllantirish vazifasi ham belgilab qo'yildi.²² 1994 yilning oktabrida Toshkent va Samarqand shaharlarida Butun jahon turistik tashkilotining “Ipak yo'li” loyihasini ishlab chiqish bo'yicha xalqaro yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Respublikasi ushbu qadimiy yo'nalish (marshrut) markazi deb belgilandi. “O'zbekturizm” milliy kompaniyasi tomonidan “Buyuk Ipak yo'li” o'tgan tarixiy manzillar bo'ylab yo'nalishlar ishlab chiqildi. Ilgari o'rganilmagan me'morchilik va arxeologik yodgorliklar aniqlandi. 1995 yil 2 iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti “Buyuk ipak yo'li” ni qayta tiklashda O'zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora – tadbirlar to'g'risida” Farmon qabul qildi.

Shu farmonga muvofiq g'oyat muhim xalqaro turizm yo'nalishi – Buyuk ipak yo'lini qayta tiklash, xorijiy sayyohlarni keng jalb qilish, shuningdek mamlakatda zamonaviy turizm sanoatini vujudga keltirish maqsadida Buyuk ipak yo'lidagi shaharlar – Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent shaharlarida xalqaro

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O'zbekistonda turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori. // «Xalq so'zi» gazetasi, 1995 y. 4 iyul.

turizm bo'yicha maxsus ochiq iqtisodiy mintaqalar tashkil etish vazifasi qo'yildi va bu borada muhim tadbirlar belgilandi.

Jumladan Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent shaharlarida turizm sohasida qo'shma korxonalar barpo etuvchi xorijiy sarmoyadorlarga muayyan imtiyozlar berildi. Termiz shahrining 2500 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 27 dekabrda Qarori ham bu sohada yanada muhim yangilik bo'ldi. Qarorda "O'zbekturizm" milliy kompaniyasiga xorijiy va mahalliy turizm infratuzilmasini rivojlantirish, sayyohlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash choralarini, xorijiy sayyohlarni mamlakatimizning, xususan, Surxon vohasining tarixiy – madaniy merosi bilan tanishtirish chora – tadbirlarini ko'rish vazifasi topshirildi.

Qisqa vaqt ichida Surxon vohasining diqqatga sazovor joylari, Al Hakim Termiziy, Sulton Saodat, Qirqqiz, Kokildor ota maqbaralari qayta ta'mirlandi va obod go'shalarga aylantirildi. Jumladan Sulton Saodat me'moriy majmuasida 14 million so'mlik ta'mirlash, tiklash ishlari "O'zbekta'mirshunoslik" institutida 10,82 so'mlik ilmiy tadqiqot va loyiha ishlari "Qadriyat" davlat korxonasi tomonidan 13,03 million so'mlik me'moriy bezaklarni ilmiy ta'mirlash ishlari bajarildi.²⁴

"O'zbekturizm" milliy kompaniyasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki bilan birgalikda investisiya banki – "O'zsayyohatinvestbank"ni tashkil qildi. Jamlanayotgan mablag'lar qat'iyan aniq maqsad yo'lida foydalanilishi ustidan nazoratni ta'minlash yo'lida muayyan ishlarni amalga oshirdi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida turizm bo'yicha idoralararo kengash tuzilib, quyidagilar shu kengash faoliyatining asosiy vazifalari qilib belgilandi:

- turizm sohasida tub iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish;
- jahon andozalari darajasida kichik va o'rta mehmonxonalar, motellar va kempinglar tarmog'i shakllantirilishini muvofiqlashtirish;

- sayr – tomoshalar zamonaviy industriyasini, madaniy va sport sogʻlomlashtirish markazlarini barpo etishga koʻmaklashish;
- Mavjud turizm imkoniyatlari va tarixiy – madaniy meros keng koʻlamda targʻib qilinishi va saqlanishini tashkil etish;
- Sayyohlik tizimida muvofiqlashtirilgan ilmiy – texnikaviy va investisiya siyosatini oʻtkazish;
- Sayyohlik sohasida kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashni taʼminlash.

1995 yil oktabr oyidan oʻzbek, rus, ingliz tillarida uch oyda bir marta “Ipak yoʻli” gazetasi (xalqaro – reklama – turistik axborot nashri; 5000 nusxada) chiqadi. (Muassislar “Oʻzbekturizm” milliy kompaniyasi, Oʻzbekiston Respublikasi Davlat matbuot qoʻmitasi).

Oʻzbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan turistik sohadagi bu yutuqlarimiz ayni paytda kishiga katta masʼuliyat yuklaydi. Chunki, chet ellik sayyohlar oqimining oʻsishi va respublikaning xalqaro sayyohlik markazi sifatidagi obroʻsi ortishi sayyohlarning Oʻzbekistonga kelishi chogʻida duch keladigan muammolarni, xususan chegara, bojxona, viza borasidagi ayrim rasmiyatchiliklarni yengillashtirish va safar davomida sayyohlarning xavfsizligini taʼminlash bilan bevosita bogʻliqdir.

Ana shu maqsadda “Oʻzbekturizm” Milliy kompaniyasi manfaatdor boshqa tashkilotlar bilan birga ushbu yoʻnalishlar boʻyicha izchil ish olib borishi zarur. Shuni ham taʼkidlash kerakki, bugungi kunda sayyohlarni mamlakatimizdagi qaysi sayyohlik nuqtalari koʻproq qiziqtirayotganini bilish ham muhim ahamiyatga egadir. Soʻrov natijalari shuni koʻrsatdiki, sayyohlarda Buxoro shahri (35 foiz), Samarqand shahri (22 foiz), Xiva shahri (20 foiz), Nukus va Termiz shaharlari (9 foizdan), Toshkent shahri (4 foiz) va boshqa shaharlar esa (10 foiz) qiziqish uygʻotgan¹.

Madaniy dam olish boʻyicha esa sayyohlarning 45 foizini folʼklor musiqasi, raqs, milliy kiyimlar va odatlarning namoyishi, 34 foizini milliy taomlar, 26 foizini

¹ Toʻxliyev N. “Osiyo va bozor. Bozorga oʻtishning mashaqqatli yoʻli” – T., “Oʻzbekiston,” 1999, 54 – 55 b.

esa hunarmandlik va yodgorliklar ishlab chiqarish qiziqtirgan. Shuni ta'kidlash kerakki, ko'pgina sayyohlar O'zbekistonga kelgunlariga qadar bizning mamlakatimiz to'g'risida to'la tasavvurga ega bo'lmaganlar. Ammo sayyohat nihoyasiga yetganidan so'ng sayyohlarning 79 foizi o'z vatanlariga borganlaridan so'ng O'zbekiston Respublikasi to'g'risidagi materiallarni izlab topib, bu yerdagi xalqlar, ularning madaniyati, urf – odatlari, iqtisodini o'rganishga qaror qilgan. Bu esa mamlakatimizga tashrif buyurishni xohlovchilar sonining oshishiga xizmat qiladi, albatta.

Shunday bo'lsa – da, respublikamizga bo'lgan bunday qiziqish nafaqat qadimiy yodgorliklar va madaniy ekskursiyalar, balki yuqori darajadagi xizmat ko'rsatish bilan ham belgilanishini e'tibordan chetda qoldirmasligimiz kerak. Shu o'rinda ko'rsatilgan xizmatdan 15 foiz xorijiy sayyohning qisman qoniqqani va 19 foizining esa butunlay qoniqmagani (2000 yilgi ma'lumot) soha xodimlarini sergak torttirmog'i zarur. YA'ni, bu raqamlar xizmat sifatini yaxshilash uchun zudlik bilan keraklicha chora – tadbirlar ishlab chiqilishi lozimligidan darak beradi.

Bu esa barcha tashkilotlar bilan shaharlar xo'jaligidan (transport, umumiy ovqatlanish, savdo, ko'chalarning tozaligi va obodonligi, jamoat tartibi, madaniy va dam olish maskanlari, qo'llanmalar va ingliz tilidagi ko'rsatkich belgilari) katta mas'uliyat talab qiladi. Shuningdek, turistik mahsulotni ishlab chiqish jarayonida albatta to'la xizmatlar majmuasini o'z ichiga olgan (yashash, ovqatlanish, ekskursiya va boshqalar) raqobatbardosh "Pekidj" yaratish taqozo qilinadi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, bugungi kunda sayyohlarni mamlakatimizdagi qaysi sayyohlik nuqtalari ko'proq qiziqtirayotganini bilish ham muhim ahamiyatga egadir. So'rov natijalari shuni ko'rsatdiki, sayyohlarda Buxoro shahri (35 foiz), Samarqand shahri (22 foiz), Xiva shahri (20 foiz), Nukus va Termiz shaharlari (9 foizdan), Toshkent shahri (4 foiz) va boshqa shaharlar esa (10 foiz) qiziqish uyg'otgan.

Madaniy dam olish bo'yicha esa sayyohlarning 45 foizini fol'klor musiqasi, raqs, milliy kiyimlar va odatlarning namoyishi, 34 foizini milliy taomlar, 26 foizini

esa hunarmandlik va yodgorliklar ishlab chiqarish qiziqtirgan.¹ Shuni ta'kidlash kerakki, ko'pgina sayyohlar O'zbekistonga kelgunlariga qadar bizning mamlakatimiz to'g'risida to'la tasavvurga ega bo'lmaganlar. Ammo sayyohat nihoyasiga yetganidan so'ng sayyohlarning 79 foizi o'z vatanlariga borganlaridan so'ng O'zbekiston Respublikasi to'g'risidagi materiallarni izlab topib, bu yerdagi xalqlar, ularning madaniyati, urf – odatlari, iqtisodini o'rganishga qaror qilgan. Bu esa mamlakatimizga tashrif buyurishni hohlovchilar sonining oshishiga xizmat qiladi, albatta.

Turizm sohasida davlat siyosati bevosita uning o'ziga xos taraqqiyot yo'lidan kelib chiqadi. Bunda asosan sohaning erkinligi, unga davlatning ko'magi, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholiga alohida e'tiborning qaratilishi, ushbu sohaga ichki va xorijiy investitsiyalarni jalb etishi kabi yo'llar bilan turizm industriyasini rivojlantirishga erishish ko'zda tutilgan.

«Turizm to'g'risida»gi qonunning 4-moddasida ushbu sohadagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari ko'rsatilgan. Mazkur qonunda ta'kidlanishicha ushbu sohadagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Turizm va turistik industriyani rivojlantirish. Buning mazmunida shunday siyosat yotibdiki, turizmni rivojlantirish uchun turistik industriyani, ya'ni turistlarga xizmat ko'rsatuvchi mehmonxonalarni, turistik komplekslar, kempinglar, pansionatlar, umumiy ovqatlanish va savdo shaxobchalari, transport korxonalari, madaniyat va sport muassasalari kabi turistik obyektlarni xalqaro andozalar darajasida hozirlashni taqozo qiladi. Bu jarayon qaysi mulk hisobidan amalga oshirishdan qat'iy nazar, davlat o'zining shu sohaga oid tashkilotlari orqali muvofiqlashtirib, ko'maklashib turadi. Turistik obyektlar qancha bo'lmasin turistik industriya rivoj topmasa turizmni rivojlantirish to'g'risida qilingan barcha harakatlar befoyda. Chunki, mamlakatimizni havas qilib kelgan turist, agar turizm xizmati joyida bo'lmasa qayta kelishni orzu qilmaydi va o'z tanishlariga ham bu

¹ To'xliyev N. "Osiyo va bozor. Bozorga o'tishning mashaqqatli yo'li" – T., "O'zbekiston," 1999, B-58.

joyga bormaslikni targ'ibot qiladi. Bu turistlarni qabul qiluvchi mamlakat uchun juda qimmatga tushishi tabiiy.

2. Fuqarolarning sayohat qilish paytida dam olish, erkin harakatlanish va boshqa huquqlarni ta'minlash. Bunda, eng avvalo, turistlarning xavfsizligini ta'minlash katta salohiyat kasb etadi. Chunki xavfsizlik ta'minlanmagan joyda erkinlik ham, dam olish ham ko'ngildagidek bo'lmaydi. Bu ham davlat hududidagi turistlarning hammasi uchun daxldordir. Chunki turistlarga davlat, nodavlat, xususiy turistik firmalar xizmat qilishi mumkin. Lekin mulk shaklidan qat'iy nazar, davlat turistlarning erkin harakati va xavfsizligini ta'minlashni, qonun bilan o'z zimmasiga olgan. Bu turizmning rivojlanishi uchun asosiy omillardan biridir.

3. Turistik resurslardan oqilona foydalanish va ularni saqlash. Mamlakatimizda turistik resurslarning, ya'ni turistlar qiziqib ko'radigan tarixiy va madaniy obidalarning, ma'rifiy, ijtimoiy-maishiy obyektlarning, betakror tabiati, iqlimi va londshafti kabilarning mavjudligi o'zi bir Ollohning in'omi. Uni asrab-avaylash har bir avlodning muqaddas fuqarolik burchidir. Ushbu obidalarning ko'pi necha asrlardan buyon bizgacha yetib kelgan. Biz ham ularni kelgusi avlodlarga yaxshi saqlangan holda yetkazishimiz kerak. Bu esa mazkur obyektlarni asrab-avaylab, ulardan oqilona foydalanishni taqozo qiladi. Mustaqillik yillarida tarixiy obidalarni avaylab-asrash borasida mamlakatimizda misli ko'rilmagan bunyodkorlik ishlarining amalga oshganligi bejiz emas.

4. Turizm sohasidagi normativ bazani takomillashtirish. Davlatning bu siyosati bevosita uning o'ziga bog'liq. Chunki har qanday qonun yoki meyoriy hujjat davlatning ichki va tashqi siyosati, tartib qoidasiga amal qilishni taqozo qiladi. Shu jihatdan qaralsa, davlat barcha meyoriy hujjatlarni ishlab chiqishi va ularni muttasil ravishda takomillashtirib borishi lozim. Hozirgi vaziyat shuni ko'rsatmoqdaki, bu borada davlat o'z vazifasini a'lo darajada ado etib kelmoqda. Hozirgi paytda turizm to'g'risidagi qonun qabul qilingan, Prezidentning o'nlab farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari e'lon qilingan. Bu ham ko'rsatadiki, ushbu sohada meyoriy hujjatlarni takomillashtirish davlatimizning doimiy e'tiborida bo'lib kelmoqda.

5. Bolalar, yoshlar, nogironlar va aholining kam ta'minlangan qatlamlari turizmi (ekskursiyalari) uchun sharoit yaratish ham davlatimizning turizm sohasidagi siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biridir. Bu bevosita mamlakatimizda shakllanayotgan ijtimoiy himoyaga asoslangan bozor munosabatlarini qaror toptirish maqsadidan kelib chiqadi. Zero, ushbu guruhga kiritilgan aholi qatlami asosan davlat ko'magiga muhtoj aholi qatlamidir. Aholining mazkur qismi mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining rivojlanib borishi bilan qisman kamayib boradi. Ammo butunlay barham topmaydi, chunki aholining ahvoli qanday bo'lishidan qat'iy nazar, bolalar doimiy ravishda bo'ladi, yoshlar ham ulg'ayib kelayotgan avlod sifatida hamisha mavjud, nogironlarning ham mavjudligi muqarrar. Nihoyat kam ta'minlangan aholi qatlami asta-sekinlik bilan kamayib borishi mumkin. Bu vaziyat davlatimizning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida kuchli ijtimoiy himoyaga asoslangan siyosatni yuritishni taqozo qiladi. Bu siyosatning bevosita utrizmga ham joriy qilinishi davlat siyosatida ijtimoiy himoyaning izchilligidan dalolat beradi.

6. Turistik industriyani rivojlantirish uchun investitsiyalar jalb etish siyosati. Bu siyosat ham mamlakatimizda turistik obyektlarni yaxshi holatda ushlab turish va ularni rivojlantirishga qaratilgan. Bu sohada mustaqillik yillarida juda ko'p turistik obyektiga mansub inshootlar qurildi. Bular jumlasiga Samarqanddagi Imom al-Buxoriy majmuasi, Imom Motrudiy maqbarasi, Fovsul A'zam qadamjosi, Xo'ja Ahrori Vali maqbarasining qayta ta'mirlanishi, Al-Farg'oniy, Marg'inoniy, Amir Temur kabi buyuk zotlarga qo'yilgan yodgorliklarni kiritish mumkin. Bu obyektlarning barpo etilishi va ta'mirlanishi uchun misli ko'rilmagan darajada investitsiyalar jalb qilindi. Zero, ushbu ajdodlarimizga qo'yilgan yodgorliklar nafaqat turistik obyekt sifatida qad ko'tarmoqda, balki, eng muhimi, biz o'z tariximizni o'rganib o'zligimizga qaytmoqdamiz. Bu esa mustaqil taraqqiyot yo'lini tutgan va o'ziga hech kimdan kam emasligi va kam bo'lmaganligini tarannum etishga qaratilgan davlatning siyosatidir. Bu siyosat barcha eng muhim siyosatlar singari ustuvor siyosatdir.

7. Tadbirkorlik faoliyati subyektlari uchun turistik xizmatlar bozorida teng imkoniyatlar yaratish siyosati ham davlatimizning turizm sohasidagi muhim yo‘nalishlardan biridir. Barcha sohalar singari turizm sohasida ham davlat tashkilotlari bilan birgalikda nodavlat tashkilotlari ham faoliyat ko‘rsatadi. Ularning asosiy qismini xususiy yoki aralash mulkka asoslangan tadbirkorlik subyektlari tashkil qiladi. Bu subyektlarga tegishli sharoit yaratib berish, ularning erkinligini, mulkiy munosabatlarda daxlsizligini ta‘minlash kabi tadbirlar turizm sohasida erkin raqobat muhitini shakllantirish va uning rivojlanishi uchun asosiy omillardan birini yaratish imkonini beradi.

Mamlakatimizda amal qilayotgan «Tadbirkorlik subyektlari faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida»gi qonun (2000 yil 25 may) ham to‘lasincha mazkur sohada tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga bel bog‘lagan tadbirkorlarga ham daxldor. Bundan tashqari, turizm sohasida tadbirkorlik bilan shug‘ullanadigan subyektlarga qo‘shimcha ravishda huquq va majburiyatlar «Turizm to‘g‘risida»gi qonunda ham belgilab qo‘yilgan. Ko‘rinib turibdiki, bu sohada turizmni rivojlantirishda davlat o‘z siyosatini amalga oshirish uchun ularning faoliyatida erkinlikni ta‘minlash borasida tegishli meyoriy hujjatlar paketini yaratib qo‘ygan.

8. Turistlarning xavfsizligini, ularning huquqlari, qonuniy manfaatlari va mol-mulki muhofaza qilinishi ta‘minlash ham bu sohadagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan birini tashkil qiladi. Zero, har qanday turist bir joydan ikkinchi joyga borishga, asosan o‘zining har tomonlama xavfsizligi ta‘minlangan bo‘lsagina, qaror qabul qiladi. Turistlar tomosha qiluvchi, dam oluvchi sifatida o‘zlarining qonuniy manfaatlariga ega bo‘lishi, mol-mulkining daxlsizligi ta‘minlanishini xohlaydi. Bu uchun esa turistlarni qabul qiluvchi mamlakat ushbu sharoitlarni to‘liq yaratgan bo‘lishi lozim. Shu jihatdan davlatimizning mazkur siyosat yo‘nalishi aynan turistlarning shu muhim talablarini qondirishga qaratilgan. Turistlarning xavfsizligini ta‘minlash, ayniqsa bugungi, dunyoda xalqaro terrorizm balosining kuchaygan paytida o‘ta muhimdir. Bu tadbir o‘z navbatida turistlarni

kutib olish, olib yurish va kuzatishda turistik firmalar xodimlari bilan birga milliy xavfsizlik va ichki ishlar xizmatlaridan ham foydalanishni taqozo qiladi.

9. Turizm sohasining ilmiy ta'minotini tashkil etish va rivojlantirish ham davlatimizning ushbu sohadagi siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biridir. Chunki, soha ham o'ta murakkab soha. Uni ko'r-ko'rona rivojlantirib bo'lmaydi. Bu sohani iqtisodiyotning asosiy qismiga aylantirish va tegishli foyda olishga erishish uchun uni ilmiy jihatdan chuqur tadqiq qilishni taqozo qiladi.

Turizmning rivojlanishi uchun mamlakatimizda uning ilmiy asosi yaratilmoqda. Vazirlar mahkamasining 2004 yil 26 aprelda qabul qilingan «Samarqand iqtisodiyot va servis institutini tashkil qilish» to'g'risidagi qarori ushbu soha rivojining ilmiy asosini yaratdi. Mazkur qaror bilan shu institutga «Turizm menejmenti», «Turizm marketingi», «Turizm xizmatlari operatorligi» kabi o'quv yo'nalishlari bo'yicha bakalavr tayyorlash, 2008 yildan magistratura ochildi va ilmiy-tadqiqotlar olib borish uchun esa aspirantura hamda ixtisoslashgan Kengash ochish masalalari yuklatildi.

Bulardan ko'rinib turibdiki, davlatimiz turizmni rivojlantirish, uni ilmiy asosda yo'naltirish, faoliyatini muttasil takomillashtirish uchun tegishli choralarni ko'rmoqda. Davlatimizning bu siyosati shu soha uchun kadrlar tayyorlash, malakasini oshirish bilan uyg'unlashib ketadi. Shu tufayli ushbu sohaga ham alohida ahamiyat berib kelinmoqda.

10. Turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ham davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biridir. 2004/2005 o'quv yiliga qadar mamlakatimizda faqat «Turizm» o'quv yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlanar edi. Shu o'quv yilidan boshlab, ta'kidlanganidek, «Turizm menejmenti», «Turizm marketingi» va «Turizm xizmatlari operatorligi» bo'yicha ham kadrlar tayyorlanadigan bo'ldi. Oldin turizm sohasiga kadrlar faqat ixtisoslashgan kollejlarda tayyorlanadigan bo'lsa, endilikda 2004 yildan boshlab oliy o'quv yurtlarida ham tayyorlanadigan bo'ldi. Ko'rinib turibdiki, bu sohaga ham davlatimiz har tomonlama e'tibor berib kelmoqda.

11. Davlat o'z zimmasiga chet mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish masalasini ham olgan va bu yo'nalish davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Bu borada mamlakatimizda ancha ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, tarixiy obidalarga boy Shahrisabz shahrida mehmonxona qurish bo'yicha Polshaning «Budimeks» HJ bilan kontrakt imzolandi. Turkiyaning O'zbekistondagi elchisi janob Rashid Ummon bilan, Fransiyaning interfransmediya korrespondenti Korolina Mateo va Liberti TV vitse Prezidenti Joye Lambertlar bilan turizm sohasida hamkorlikni rivojlantirish borasida muzokaralar olib borildi.

2004 yil iyun oyida O'zbekiston Hukumati delegatsiyasi Malayziyaga tashrif buyurdi. Boshqa iqtisodiy masalalar bilan bir qatorda, turizm sohasida ham hamkorlik qilish istiqbollari ko'rib chiqildi. Tashrif davomida Malayziyaning ko'pgina turistik firmalari bilan uchrashuvlar, muzokaralar o'tkazildi va Malayziyalik turistlarni kichik haj amallarini bajarish maqsadida Samarqand va Buxorodagi Imom al-Buxoriy va Naqshbandiy majmualariga safarga yuborish to'g'risida kelishib olindi.

«O'zbekturizm» Milliy kompaniyasi va unga qarashli turistik firmalar Yaponiya, Rossiya, Germaniya, Yevropaning bir qancha mamlakatlari, Sharqiy Osiyodagi davlatlar bilan hamkorlik qilmoqda va bu hamkorlikni kengaytirish borasida ish olib borilmoqda.¹

¹ Quvvatov N. O'zbekistonda turizm: bugun va erta. Jamiyat va boshqaruv jurnali. 2000 yil, 1 – son, B- 85

Xulosa

O'zbekiston Respublikasidagi madaniyat, xalq xo'jaligi, ilm – fan va boshqa sohalar qatorida davlatlararo turizm sohasiga ham katta e'tibor berilmoqda. Ma'lumki, turizm serqirra soha bo'lib, u orqali turli millat xalqlari, ularning yashash sharoitlari, ilm va madaniyatda, tarixiy va madaniy meroslari, xalq xo'jaligi, sanoat, urf – odati hamda turmush tarzi, turli davlatlar o'rtasidagi madaniy, ilmiy va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga ko'maklashib savdo sohasining rivojlanishida esa muhim rol' o'ynaydi. Shunday ekan, bugungi kunda mustaqil diyorimizda turizmga bo'lgan munosabat har qachongidan ham muhim va serdaromad soha bo'lib qolmoqda.

Birinchidan, O'rta asrlardayoq tovar bozorlari ixtisoslasha boshladi. Chakana bozorlar (pirovard iste'mol talabi qondiriladigan bozor) ko'tara savdo bozori (xomashyo, asbob – uskunalar va boshqa ishlab chiqarish vositalari sotiladigan bozor)dan ajralib chiqdi. Tovarlar yarmarkalarda, birjalarda sotiladigan bo'ldi. Vaqti kelib, tovar bozorlari bilan bir qatorda mustaqil xizmat bozori (transport, turizm) ham dunyoga keldi.

Bozorning rivojlanishi natijasida savdogarlar qadimda, o'rta asrlarda bir yurtidan ikkinchisiga faqat mol emas, shu bilan birga madaniyat, urf - odatlarni, diniy e'tiqodlarni ham olib yurganlar. Ular ko'rgan, bilgan yurtlaridan eng ilg'or fan va madaniyat yutuqlarini o'z yurtlariga olib kelishgan. Ular orasida olimlar, shoirlar, tabiblar, sayyohlar va boshqalar bo'lgan. Ular geografiya, matematika, astronomiya ilmarini yaxshi bilishgan. Chunki bularsiz keng sahroda, bo'ronli va qorong'i tunlarda karvonni ilgari boshlash qiyin bo'lgan.O'rta Osiyoda o'n, o'n to'rt yoshli o'spirinlarni tijorat sirlarini o'rgatish maqsadida karvonlarga qo'shib yuborish rasm bo'lgan. Savdogarlik bilan qadimdan ayollar ham shug'ullanishganligi manbalar asosida tahlil qilib berildi..

Ikkinchidan, Buxoro amirligi va Xiva xonligiga sayohatga keluvchi G'arbiy Yevropalik sayyohlar (shu bilan birga Rossiya fuqarolari ham) butun sayohatlari davomida qattiq nazorat ostiga olinar edi. Buni quyidagi dalillar ham

tasdiqlaydi. Zakaspiy viloyati boshlig‘i general – leytenant A.N. Kuropatkinning 1891 yil 27 sentabrdagi 114 – sonli buyrug‘ida “harbiy boshliqlar, boshqarmadagilar, viloyatlardagi idora xodimlari va Zakaspiy temir yo‘li va viloyatda yashovchilar, shuningdek xorijliklarga Buxoro amirligiga kirish faqat Zakaspiy temir yo‘li orqali amalga oshirilishi va ularning albatta temir yo‘l amaldorlarining ro‘yxatidan o‘tishlari zarurligi” belgilab qo‘yilganligi yoritib berildi.

Uchinchidan, Ba’zi mamlakatlar uchun turizm katta biznesning tez rivojlanayotgan sohasiga aylandi. Masalan, tovar va xizmatlar eksportidan keladigan daromadlarda turizmning hissasi ortib bormoqda. Buni Ispaniya misolida ham ko‘rishimiz mumkin. 1960 – yillarda Ispaniyada turizm industriyasi tashkil etildi. U chet el sayyohlarini mamlakatga jalb etib, industrlashtirish uchun zarur mablag‘ni topib berdi. Germaniya Federativ Respublikasi (GFR), Shveytsariya, Fransiyada vaqtincha ishlagan ispan ishchilari o‘z oilalariga yo‘llagan valyuta oqimi ham bu borada qo‘l kelganligi manbalar asosida ochib berildi.

To‘rtinchidan, O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin turizm ishini yaxshilash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 27 iyuldagi Farmoni bilan sayohat sohasida respublikada yagona siyosatni amalga oshiruvchi davlat organi – “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi tuzildi. U mamlakatda shu sohadagi bir qancha davlat va jamoat tashkilotlari, birlashmalar negizida yangitdan tashkil topdi.

1999 yilda qabul qilingan «Turizm to‘g‘risida»gi qonunning 4-moddasida ushbu sohadagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari ko‘rsatilgan. Mazkur qonunda ta’kidlanishicha ushbu sohadagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilar:

- Turizm va turistik industriyani rivojlantirish.
- Fuqarolarning sayohat qilish paytida dam olish, erkin harakatlanish va boshqa huquqlarni ta’minlash.
- Turistik resurslardan oqilona foydalanish va ularni saqlash.

- Turizm sohasidagi normativ bazani takomillashtirish.
- Bolalar, yoshlar, nogironlar va aholining kam ta'minlangan qatlamlari turizmi (ekskursiyalari) uchun sharoit yaratish.
- Turistik industriyani rivojlantirish uchun investitsiyalar jalb etish.
- Tadbirkorlik faoliyati subyektlari uchun turistik xizmatlar bozorida teng imkoniyatlar yaratish.
- Turistlarning xavfsizligini, ularning huquqlari, qonuniy manfaatlari va mol-mulki muhofaza qilinishi ta'minlash.
- Turizm sohasining ilmiy ta'minotini tashkil etish va rivojlantirish.
- Turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish.
- Davlat o'z zimmasiga chet mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish siyosati manbalar asosida o'rganildi.

Tavsiyalar

Birinchi, Turizm sohasida ishlovchi malakali kadrlar tayyorlash;

Ikkinchi, Davlatimizning xalqaro mavqei iqtisodiyoti, madaniyati, tarixiy yodgorliklarini dunyo mamlakatlari xalqlariga tanishtirish;

Uchinchi, O'zbekiston Respublikasidagi mavjud sayohat joylari bo'lgan Samarqand, Buxoro va Xiva kabi shaharlari yoniga yangi shaharlarni qo'shish va uning geografik ko'lamini yanada kengaytirish zarur;

To'rtinchi, Turizmni rivojlantirish yo'lida davlatlar va millatlar tillarini o'rganish vazifalarini hal etish.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T: O'zbekiston, 2012.
2. Karimov I. A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T., "O'zbekiston," 1995 .
3. Karimov I. A. Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish-bizning bosh maqsadimizdir. T., 2013
4. Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. "Xalq so'zi" gazetasi 2015, 12 aprel soni
5. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. T., "Ma'naviyat" 2008
6. Биржаков Б. Индустрия туризма. М., 2003
7. Бгатов А. Туристские формальности. М., 2004
8. Eng yangi tarix.. – T., "O'qituvchi," 1995.
9. Quvvatov. N. O'zbekistonda turizm: bugun va erta. Jamiyat va boshqaruv jurnali. 2000 yil, 1 – son.
10. Surxondaryo viloyatida ijtimoiy – iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish borasida 1997 yil xalq xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida olib borilgan iqtisodiy ishlar tahlili. – Termiz., 1997.
11. S.M. Gorshenina XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning 30 – yillarida G'arbiy Yevropa sayyohlarining Turkistonga safari haqidagi statistkaga oid yangi ma'lumotlar. O'zbekistonda ijtimoiy fanlar. 1999 yil, 9 – 10 son.
12. Кабушкин Н. Организация туризма. М., 2003
13. To'xliyev. N. "Osiyo va bozor. Bozorga o'tishning mashaqqatli yo'li" – T., "O'zbekiston," 1999.
14. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi qonuni. // «Xalq so'zi» gazetasi, 1999 yil 14 sentabr.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 27 iyuldagi “O‘zbekturizm Milliy kompaniyasini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni. // «Xalq so‘zi» gazetasi, 1992 y. 28 iyul.
16. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida xalqaro turizmning zamonaviy infrastrukturasini barpo qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. // «Xalq so‘zi» gazetasi, 1995 y. 4 iyun.
17. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Sayyohlik tashkilotlari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarori. // «Xalq so‘zi» gazetasi, 1998 y. 9 avgust.
18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2005 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida»gi Farmoni. // «Xalq so‘zi» gazetasi, 1992 y. 16 aprel
19. O‘zbekiston tarixi. – T., “Sharq,” 2000.
20. O‘zbekiston tarixi. – T., “O‘qituvchi,” 1996.
21. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – T., 1997.
22. O‘zbekistonning yangi tarixi. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. 3 jildlik, 3 – jild. – T., “Sharq,” 2000.

Internet saytlari

www.ziynet.uz

www.google.uz

www.edu.uz